

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 6-oktabr, chorshanba № 41 (9366)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Prezidentlikka nomzod Alisher Qodirov bilan saylovoldi uchrashuvi bo'ldi. A.Qodirovning dasturida xususiy maktablarga ruxsat berilishi haqida ham fikrlar bor ekan. Shundan kelib chiqib "Xususiy maktablarning ko'payishi davlat maktablarining yanada qashshoqlanishiga olib kelmasligiga kafolat bera olasizmi?" degan savolimga "Kafolat beraman" deb javob berdi. Menimcha, ta'lim tizimida ilmiy va kasbiy maktablar tashkil etilsa, nur ustiga nur bo'lardi.

Dilfuza G'AZNAYEVA

O'tgan yili o'g'lim fizika faniga qiziqqa boshladi, biroq hafsalasi pir bo'ldi. Boisi, fizika ustozini (nafaqaga chiqqan) darsni faqat pand-nasihat bilan o'tkazarkan. Boshlang'ichdagi ustozni yosh yigit bo'lsa-da, bolalarning mehrini qozona olgandi. Bu yil ham farzandim "o'ta mas'uliyatli" muallimdan doim shikoyat qiladi. Endi boshqa ustozning uyiga qo'shimcha darsga bormoqchi. Men-ku qo'shimchaga berarman, hamma oilada ham sharoit yo'q-ku. Ayrim o'qituvchilar oyligini halolab olmas ekan, ishdan zerikkan bo'lsa, nafaqasini olib o'tiravermaydimi? (Ba'zi vijdonli ustozlarga tegishli emas). Shundaylar sabab iqtidorli yoshlar kashf etilmay qolmoqda.

Muhabbat ustoz

Yaqinda yurtimizda katta siyosiy tadbir — Prezident saylovi o'tkaziladi. Barcha fuqarolar o'z huquqlaridan foydalangan holda saylovda qatnashadi. Lekin bu jarayonga mas'ullar qatorida o'qituvchilarning birlashtirishini yoqlab bo'lmaydi. Axir mahalla fuqarolar yig'inlari va boshqa boshqaruv organlarining vakolatidagi ishmasi bu? Biz uylarni birma-bir aylanib, odamlarni ro'yxatga olishimiz, taklifnoma tarqatishimiz, hatto saylov haqida odamlarga tushuncha berishimiz kerak. Nega o'qituvchilar darslardan ortib bu ishlarni qilishi kerak?

Sohiba VAISOVA



Adabiyot
bo'yicha
milliy o'quv
dasturi:
e'tirozlar va
munosabat

"Kitoblarni qabul qilish"
komissiyasi nomiga faoliyat
yuritadi

Pedagoglar
attestatsiyada
qanday natija
ko'rsatishdi?

**"Chivinlar o'ldirilishi emas,
botqoq quritilishi kerak"**

**Bizga maktab
qurib bering!**

Deng'ara tumanidagi "Uymovit" MFY aholi bir necha yillardan buyon maktab qurib berilishini talab qilmayotganida.

2-bet

**Kutubxonachi qancha
ishlamasin, munosib
taqdirlanmaydi**

4-bet

**Chodra hovli
haqida bilasizmi?**

15-bet

Xalq ta'limi vazirligi diqqatiga!

Bizga maktab qurib bering!

Dang'ara tumanidagi "Uymovit" MFY aholisi bir necha yillardan buyon maktab qurib berilishini so'rashmoqda.

Bu haqda Dang'ara tumani kengashi deputati Er-gashali Shomurodov shunday deydi:

— Bir necha yillardan buyon Uymovit qishlog'ining bolalari 3 km yo'l bosib Xo'ja qishlog'ida joylashgan 34-maktabga kelib tahsil olishmoqda. Yuqori sinflar-ku mayli, ammo qishning qirovli va sovuq kunlari boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalar juda qiynalish-yapti. Maktabda o'qish ikki smenada tashkil etilgan. Ikkinchi smenada o'qiydigan bolalar qorong'ida ketishadi. To'g'ri, kimdir mashinada, kimdir velosipedda bolasini olib ketadi. Ammo ota-onasi ishlaydigan, bolani olib ketishga uyida hech kim yo'q oilalar ham bor. Men deputat sifatida 2019-yildan buyon bu masalani bir necha marta tuman kengashi sessiyasiga qo'yib kelaman, ammo haligacha ijobiy javob o'lganim yo'q.

Mahalla aholisi bir necha marta tuman, viloyat Xalq qabulxonalari murojaat qilganligini, ulardan hech qanday ijobiy javob o'lmaganliklarini aytmoqda.

— Akramjon Matqobilovman, — deydi "Uymovit" MFY faoli. — Haqiqatan ham bolalarga maktab kerak. Chunki ularning qishda sovuq, bahorda quyosh tigi'ida maktabga kelib-ketishlari juda qiyin. O'zingizdan qolar gap yo'q, hozirgi kunda avtomashinalar qatnovi ko'paygan. O'quvchilar Toshkent-Qo'qon magistral yo'lini kesib o'tishadi. Ularning xavfsizligini o'ylab uyda ota-onasining ham ko'ngli tinchimaydi.

Hozirgi kunda Xo'ja, Eski, Sho'rqiqlik, Uymovit qishloqlari aholisining farzandlari ta'lim olayotgan maktabda sharoit qanday? Shu savollarga javob topish uchun 34-maktabga bordik.

— Maktabimiz 680 o'ringa mo'ljallangan. Hozirgi kunda 1175 nafar o'quvchi 21 ta sinf xonasida 2 smenada o'qiydi, — deydi maktab direktori Shokirjon Mahmudov. — Sinfxonalar yetishmaganligi bois ko'pgina xonalarni moslashtirib dars o'tiyapmiz. Keyingi yil prognozini olsak, agar aholining o'sishi shu sur'atda davom etsa, maktabimiz keyingi o'quv yillaridan boshlab 3 smenaga o'tishi mumkin.

Mahalla ahlining maktab talabidagi murojaatlari o'rganilganmi? Agar o'rganilgan bo'lsa ularga qanday javob berilgan?

— Biz murojaat qilaverganimizdan keyin mana bu qog'ozni berishdi, — deydi mahalla faoli Saidakbar Nazirov. — Unda tumanda 2021-yilda 1 ta maktab qurilishi, 19-, 16-maktablar rekonstruksiya qilinishi, 9-maktab kapital ta'mirdan chiqarilishi yozilgan edi. 9-, 16-maktablarda ta'mirlash ishlari boshlanganligini eshitdik. Ammo qishlog'imizda maktab qurish hali boshlanmadi. Mana 2021-yil ham yakuniga yetyapti.

Dang'ara tumani hokimining qarilish bo'yicha o'rinbosari Ma'rufjon Xolmirzayevning telefon orqali aytishicha, tumanda 2020-yilda umumta'lim maktablarining talabidan kelib chiqib mukammal ta'mirlash, rekonstruksiya qilish bo'yicha "Manzilli dastur" taklifi tuzilgan. Taklif Xalq ta'limi vazirligiga taqdim etilgan. Ammo negadir vazirlik bu taklifni ma'qullamagan.

Ushbu dasturga asosan 34-umumta'lim maktabiga qo'shimcha 315 o'rinli bino qurish, 16- va 19-maktablarni rekonstruksiya qilish, 9-umumta'lim maktabini mukammal ta'mirlash taklifi berilgan. Berilgan taklifni ko'rib chiqib, 2021-yilda tumandagi 16-maktabga 3203,0 mln so'm ajratilib, qo'shimcha 240 o'rinli yangi bino qurilmoqda. 9-maktabga 4050,0 mln so'm ajratilib, mukammal ta'mirlanmoqda.

Dang'ara tumanida 2022–2026-yillarda ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha tuzilgan dasturga asosan "Uymovit" MFY hududidagi 34-maktabga Uymovit qishlog'ida 315 o'rinli yangi maktab qurish taklifi kiritildi.

Sharifa MADRAHIMOVA,
jurnalist

Mutaxassis minbari



Ma'lumki, Respublika ta'lim markazi tomonidan barcha umumta'lim fanlari qatori adabiyot fani bo'yicha ham Milliy o'quv dasturi(MO'D) ishlab chiqildi, umumxalq muhokamasiga qo'yildi, tegishli tashkilotlarda tahlil qilindi. Ushbu muhim hujjat bo'yicha turli fikrlar bildirilishi, unga asos bo'lgan ayrim yangicha yondashuvlar tushunilmasligi va e'tirozlarga sabab bo'lishi — tabiiy hol. Milliy o'quv dasturi muhokamasi payti bildirilgan ayrim fikr va e'tirozlar bu dastur yaratilishida bevosita ishtirok etgan mutaxassis sifatida mening e'tiborimni tortdi. Umid qilamanki, bu e'tirozlarga javobim, to'g'rirog'i, munosabatim dasturdagi ayrim jihatlarni oydinlashtirishga va adabiyotni o'qitishda shu paytgacha asos bo'lib xizmat qilgan tamoyillarga boshqacharoq nigoz tashlashga yordam beradi.

Adabiyot bo'yicha e'tirozlar va

MO'D bo'yicha fikr bildirgan ayrim mutaxassislar adabiyot fani 5-sinf dan boshlab o'qitilishi maktabgacha ta'lim va 5-sinf o'rtasida uzilish paydo qilishi borasida xavotir bildirishdi.

To'g'ri, adabiyot fani alohida fan sifatida 5-sinf dan o'qitiladi. Bundan oldingi dasturlarda ham shunday bo'lib kelgan, ya'ni bu borada MO'Dda hech qanday "inqilobiy" o'zgarish taklif qilinayotgani yo'q.

Xalqaro tajribada adabiyot fani boshlang'ich sinflarda alohida fan sifatida o'qitilishi tajribasi mavjud emas. Boshlang'ich sinflarda "O'qish (Adabiy o'qish)" alohida fan sifatida o'qitilishi asosan post-sovet davlatlarida (Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va h.k.) sobiq SSSRdan qolgan metodik an'ana o'laroq kuzatiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasida boshlang'ich sinflarda matn bilan (shu jumladan badiiy matn bilan) ishlash kompetensiyalari va badiiy adabiyotga oid dastlabki tushunchalar ona tili fani tarkibida rivojlantiriladi, chunki o'qib tushunish kompetensiyasi nutq kompetensiyasining bir qismidir, nutq kompetensiyasini rivojlantirish esa ona tili fanining asosiy maqsadi hisoblanadi. UNESCO savodxonlik standartlarida ham (Global Proficiency Framework for Reading and Mathematics, Grade 2 to 6, 2019) matnini (xususan, badiiy matnini) tushunish til domenining konstruktiv sifatida qaralgan. Shuningdek, bunday yondashuv (matn, xususan, badiiy matn bilan) ishlash kompetensiyalarining ona tili fani tarkibida berilishi) nutq ko'nikmalari va lingvistik kompetensiyalarining tabiiy integratsiyasini, o'quvchilarning til qoidalarini kontekstda o'rganishlarini ta'minlaydi va o'zlashtirish samaradorligini ta'minlashga yordam beradi.

Misol uchun, Kembrij universiteti tomonidan nashr qilingan 3-sinf uchun ona tili darsligining (Cambridge Primary English, Grade 3, Gill Budget and Kate Ruttle, Cambridge University Press, 2015) 2-bo'limida (22–36-betlar) o'quvchilarga badiiy va axborot matnning asosiy xususiyatlari haqida tushuncha berilib, ularni farqlash o'rgatilgan, shuningdek, badiiy va axborot matnlarida fe'llar va sifatarning qo'llanilishidagi farqlarga oid mashqlar keltirilgan.

Xalqaro tajribadan shuningdek, bolalarda obrazli va abstrakt tafakkur 10-11 yoshlardan boshlab shakllanishi borasidagi pedagogik psixologiya bo'yicha o'tkazilgan xalqaro, ilmiy asoslangan tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, quyi sinflarda "Adabiyot" yoki "Adabiy o'qish" alohida fan sifatida o'qitilmasdan, badiiy matn bilan ishlashga oid boshlang'ich kompetensiyalarni "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani tarkibida shakllantirish samaraliroq.

Yana bir bildirilgan e'tiroz: MO'D uchun adiblar, yozuvchi-shoirilar va ularning asarlarini tanlash mezonlari yo'q, ularni tanlashda mualliflarning shaxsiy fikriga suyanilgan.

Agar e'tiroz mualliflari MO'Dning bir qismi bo'lgan "Umumiy o'rta ta'limda adabiyot fanini o'qitishni

rivojlantirish konsepsiyasi"ga e'tibor qaratishta-da badiiy asarlarni tanlash mezonlari aniq ko'rsatilgan:

— asarning milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat tuyg'usi, sog'lom e'tiqod va ilmiy dunyoqarash hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati;

— ta'limning har bir bosqichidagi o'quvchilarning yosh, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga mosligi;

— o'quvchilarga taqdim qilinayotgan materiallarning qiziqarli, tushunarli va hayotiy bo'lishi.

Ushbu mezonlardan kelib chiqib, dasturga milliy va umumjahon adabiy merosining eng sara, mavzu, janr, badiiy uslub jihatdan rang-barang namunalari kiritildi. Shuningdek, zamonaviy kitobxonlik tendensiyalari, hozirgi zamon o'quvchisining qiziqish va ehtiyojlarini ham hisobga olishga harakat qilindi.

Dastur tahlil qilinsa, unga birinchi navbatda, milliy va jahon adabiyotida "kanon" (barcha o'qishi majburiy) darajasiga ko'tarilgan mualliflar va adiblarga keng o'rin berilganligini kuzatish mumkin.

Xususan, o'zbek adabiyotidan Alisher Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Mashrab, Furqat, Muqimiy, Abdulla Qodiriy, Abdurauq Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Maqsd Shayxzoda, Said Ahmad, O'lmas Umarbekov, Shukur Xolmirzayev, Tog'ay Murod, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov; jahon adabiyotidan Shekspir, Servantes, Pushkin, Thokur, Xeminguey, Ekzyuperi singari adiblar shunday "kanonlar" sirasiga kiradi. Misol uchun, "Kichkina shahzoda" (Ekzyuperi), "Chol va dengiz" (Xeminguey), "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" (Remark) singari asarlar jahonning ko'plab mamlakatlarida o'rta va katta yoshdagi bolalar o'qishi shart bo'lgan asarlar ro'yxatiga va maktab dasturlariga kiritilgan. Bu asarlar bolalarda nafosat, go'zallik, insoniylik, tinchlikni qadrlash singari tuyg'ularni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Dasturga shu paytgacha adabiyot darsliklarida aks etmagan asarlarning kiritilishidan maqsad — hozirgi zamon kitobxonining qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish, milliy va jahon adabiyotining mavzu, badiiy uslub, yondashuv jihatdan rang-barangligini ko'rsatish, go'zal xislatlarni shakllantirish va adabiyotga oid kompetensiyalarni (badiiy matnini tushunish, tahlil qilish) rivojlantirishga yordam berishdan iboratdir. Misol uchun, Oskar Uayld ertaklari majoziy obrazlarga boyligi, tili nafisligi bilan ajralib turadi.

Kichik sinflarda fantastika, sarguzasht, detektiv janriga oid asarlar aynan shu yoshdagi kitobxonlar qanday asarlarga ko'proq qiziqishlarini hisobga olib kiritilgan. Kichik yoshdagi o'quvchilarga ular uchun qiziq kitoblarning tavsiya qilinishi bolalarda kitob o'qishning ma'naviy ehtiyoj darajasiga chiqishida muhim rol o'ynaydi, shuningdek, adolat, bir-biriga yordam berish singari muhim xislatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, fantastika va detektiv asarlarning o'quvchilarda mantiqiy va kreativ fikrlash ko'nikma-

larini shakllantirishda muhim rol o'ynashi jahon tajribasida isbotlangan.

Yuqori sinflarda Nazar Eshonqul, Xurshid Do'st Muhammad, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Qamchibek Kenja singari mualliflarning kiritilishi o'quvchilarda hozirgi o'zbek adabiyotidagi zamonaviy tendensiyalar haqida muayyan tasavvur shakllantirishga xizmat qiladi va o'quvchilarni o'zlari yashayotgan davr kontekstida umuminsoniy qadriyatlar haqida o'ylashga majbur qiladi.

Bir narsani unutmaslik lozim: adabiyot san'atning bir turi ekan, "shedevr", "go'zal asar", "qiziqarli asar", "o'quvchilar o'qishi shart bo'lgan asar" degan tushunchalar nisbiydir. Zero, san'at asariga matematik aniqlik

Shu o'rinda, "dasturda turli asarlardan tanlash imkoniyati berilsa, adabiyot bo'yicha testlar qaysi asarlardan tuziladi?" degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Muayyan fan bo'yicha baholash tizimi, shu jumladan test shu fan doirasida shakllantiriladigan kompetensiyalarni tekshirishga qaratilishi lozim. Test tizimi orqali o'quvchilarning adiblar va asarlar haqidagi ma'lumotlarni qay darajada yod olganligini tekshirish amaliyotiga barham berish, adabiyot bo'yicha testlarda badiiy matnни tushunish va tahlil qilish kompetensiyalarini tekshirish lozim. Ona tili va adabiyot bo'yicha milliy sertifikatlash testlarida aynan shunday test namunalarini ko'rish mumkin – bunda test topshiruvchiga asardan parcha beriladi va test topshiruvchi

lishi ko'zda tutilgan ma'naviy-axloqiy fazilatlar fan bo'yicha ta'lim dasturida emas, ta'limga oid umumiy hujjatlarda aks etadi, bevosita fan dasturlarida esa aynan shu fan doirasida rivojlantiriladigan va baholanadigan kompetensiyalar aks etadi.

MO'Dda aks etgan ayrim kompetensiyalarga ham e'tiroz bildirildi. Xususan, "muallif qo'llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik(leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarini tahlil qiladi hamda ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi" tarzidagi talab adabiyot alohida o'quv predmeti sifatida o'rganilmaydigan, badiiy matn qoidasini tushuntirishga xizmat qiladigan didaktik sharoitga mos, bizda o'quvchi-

milliy o'quv dasturi: munosabat

o'lchovlar asosida baho berib bo'lmaydi. Bir avlod vakili uchun ma'lum bir adiblar qiziqarli va muhim bo'lsa, boshqa avlod vakillari uchun boshqa bir adiblar va asarlar qadrlari bo'lishi tabiiy hol. Shunday ekan, "Nega dasturga bu asar (adib) kiritildi (kiritilmadi)?" singari bahslar hech qachon tinmaydigan va yechimi yo'q bahslardir. Shunga qaramasdan, dasturga yuqorida ko'rsatilgan mezonlar asosida milliy va jahon adabiyotining go'zal, o'quvchi ma'naviy ehtiyojini qondiradigan, badiiy matnни tushunish va tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qila oladigan asarlarni kiritishga harakat qilingan.

Keyingi e'tiroz: Dasturda o'qituvchiga nimani o'qitish aniq ko'rsatilmagan, o'zi tanlash imkoniyati berilishi to'g'ri emas.

Shuni unutmaslik lozimki, adabiyot matematika yoki fizika singari aniq fan emas va adabiyot fani bo'yicha MO'Dning asosiy maqsadi shu paytgacha bo'lganidek, o'quvchilarga adiblar va asarlar haqidagi ma'lumotlarni, darslik mualliflarining tahlillarini yodlatib qaytartirish emas, balki kitobxonni, badiiy asarni tushunadigan va tahlil qila oladigan, san'atni qadrlaydigan o'quvchini tarbiyalashdan iborat. Adabiyotga oid kompetensiyalarni shakllantirishda obyekt sifatida u yoki bu asarlardan tanlash imkoniyatini berish xalqaro tajribada o'zini oqlagan. Misol uchun, Buyuk Britaniya, AQSH va Yevropa davlatlari maktab adabiyot dasturlarida adabiyot fani doirasida shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar aniq ko'rsatilgan va bu kompetensiyalarni shakllantirishda vosita (o'rganish obyekti) sifatida "Shekspirning bir dramasi", "Viktoriya davri romani", "Amerika romantik she'riyat namunasi", "XX asr boshida modern adabiyot namunasi" deb kelingan. Aynan qaysi asarni o'rganish o'qituvchi ixtiyoriga qoldirilgan. Shuning uchun ham bir darsliklarda, misol uchun, Shekspirning "Hamlet" asari kiritilgan bo'lsa, xuddi shu sinf uchun boshqa darsliklarda "Makbet", "Qirol Lir" yoki "Romeo va Julyetta" kiritilganligini ko'rish mumkin.

Bunday yondashuvni Rossiya, Ukraina singari post-sovet davlatlari adabiyot dasturlarida ham ko'rish mumkin. Misol uchun, Rossiya maorif vazirligi tomonidan tasdiqlangan turli mualliflar tuzgan 9-sinf adabiyot darsliklaridan birida Gogolning "Burun", boshqasida "Shinel", yana boshqasida "Taras Bulba" singari turli asarlari obyekt sifatida tanlanganini ko'rish mumkin.

Bunday yondashuvda ikki maqsad ko'zlangan. Birinchidan, bunday yondashuv o'z o'quvchilarining qiziqishi, ma'naviy ehtiyojini, imkoniyatlarini yaxshi bilgan o'qituvchiga adabiyot dasturini bevosita o'zi dars beradigan sinfga moslashtirish imkonini beradi va natijada fanni o'qitish samaradorligi oshadi. Ikkinchidan, variativ darsliklarning paydo bo'lishi, darsliklar mualliflari orasida sog'lom raqobat muhitining shakllanishi va pirovardida darsliklar sifati oshishi uchun zamin yaratadi.

adabiyot darslarida olgan bilimlariga tayanib matnни tahlil qiladi. Bunday yondashuvda test topshiruvchi maktabda aynan qaysi asarlarni o'qigan emas, balki adabiyotga oid kompetensiyalari qay darajada shakllanganligi muhim. Ta'lim dasturi noto'g'ri ishlayotgan test tizimiga moslashishini kutish xato ketidan xatoni keltirib chiqaraveradi.

Tahlillar jarayonida "bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar orasida bitiruvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, odamiylik fazilatlarini yuzaga keltirishga xizmat qiladigan jihatlardan deyarli ko'zda tutilmagan" degan e'tirozlar ham bildirildi.

Ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarining zaruriy hajmini berish, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish ("Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 9-moddasidan) bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, odamiylik fazilatlarini yuzaga keltirish nafaqat adabiyot fanining, balki umuman olganda ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biridir. Shu bilan birga, ta'lim dasturlarida har bir sinf, ta'limning ma'lum bir bosqichi yoki umuman ta'lim jarayoni oxirida erishilishi belgilanadigan talablar baholash tizimi bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni bitiruvchilar bu talablarni qay darajada bajara olish yoki olmasliklari asosida bitiruvchilarga, ta'lim muassasasiga, ta'lim tizimiga baho beriladi. Bu esa kompetensiyalarning imkon qadar aniq, baholab (o'lchab) bo'ladigan tarzda yozilishini taqozo qiladi. Misol uchun, 11-sinf bitiruvchisining 10-sinf bitiruvchisiga nisbatan yoki boshqa tengdoshlariga nisbatan qay darajada mehribonroq, vatanparvarroq yoki saxiyroq bo'lib qolganini baholash imkonini mavjud emas. Shuning uchun ham odatda bitiruvchida shakllantiri-

lar oldiga badiiy-estetik, ma'naviy-axloqiy talablar qo'yilishi kerak, degan fikrlar bildirildi.

Darhaqiqat, turli davlatlarda adabiyot o'qitish tajribasiga nazar tashlansa, ayrim davlatlarda alohida predmet sifatida o'qitilmasdan, ona tili fani tarkibida yoki "ona tili va adabiyot", "til va san'at" singari integrallashgan fanlar tarkibida o'qitilishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Adabiyot alohida fan sifatida o'qitilganda ham, boshqa fanlar tarkibida o'qitilganda ham uning asosiy obyekti matndir. Adabiyot darslari orqali o'quvchi badiiy matnни tushunish, tahlil qilish, unga munosabat bildirish va baho berishni o'rganadi. Badiiy matn tahlili asosida o'quvchida tanqidiy va ijodiy fikrlash, vaziyatga turli rakurslardan baho berish, xulosa chiqarish, hayotiy muammolarga yechim izlash ko'nikmalari rivojlanadi, shuningdek, estetik did, emosional intellekt(tafakkur), empatiya shakllanadi. Adabiyot so'z san'ati ekan, badiiy matn tahlilida matnning lingvistik xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, "O'g'ri"da Abdulla Qahhor nima sababdan aminni majhul nisbat ishlatishga majbur qiladi ("Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!... Axir, borilsin, arz qilinsin-da!"). Yoki Muhammad Yusuf... tramvaylar seni har kuni Bodomzorga olib ketadi" deya boshlangan she'rini "Bodomzorga seni har kuni tramvaylar olib ketadi" tarzida davom ettirishida qanday maqsad ko'zlangan? Yozuvchi nima sababdan qahramon nutqida shevaga xos yoki eskirgan, boshqa tillarga tegishli so'zlarni ishlatadi? O'quvchi badiiy matnни tahlil qilar ekan, uning lingvistik xususiyatlariga e'tibor qaratishi matnни, muallifning maqsadini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Aks sado

“Kitoblarni qabul qilish” komissiyasi nomiga faoliyat yuritadi

“Ma'rifat” gazetasi 2021-yil 15-sentabr kungi sonida chop etilgan “Maktab kutubxonachisi mavqeyi qachon oshadi?” sarlavhali maqolada kutubxonachilar faoliyatidagi dolzarb muammolar yoritilgan. Bu muammolarga qo'shimcha qilib boshqa kamchiliklarni ham ko'rsatib o'tmoqchiman. Aytaylik, 7 kishidan iborat “Kitoblarni qabul qilish” komissiyasi a'zolari “nomi”gagina qog'ozda ko'rsatiladi xolos. Tekshiruvchi, qabul qiluvchi va maktabga olib keluvchi kutubxonachining o'zi. Maktabda kutubxona uchun ajratilgan xonalar juda xarob, talab darajasida emas.

Kadrlar masalasida ham muammolar talaygina. Nega fan o'qituvchilari yetishmasa 1,5 stavka yoki undan ham ortiq dars soati olish mumkin-u kutubxonachiga mumkin emas. Chunki kutubxonalar “bandlikka ko'maklashish markazi” bo'lib qolganligi hech kinga sir emas. Mutaxassisligidan qat'i nazar, rahbar tayinlagan odam kutubxonachi bo'lib ishlayveradi.

Sog'liqni saqlash, Moliya, Xalq ta'limi vazirliklarining yodidan chiqib qolgan bu mutaxassislar qadimda juda qadrlil bo'lganligini unutmasligimiz kerak. Kitobxonlikni targ'ib qilish kutubxonachining asosiy ishi va vazifasiga kiradi. Kutubxonachi bir vaqtning o'zida ma'naviyatchi, targ'ibotchi, pedagog vazifasini bajarishi hamma ma'lum. Biz institutda 4 yil tadbirlar uyushtirish, kitobxonga xizmat ko'rsatish, kitoblarga ishlav berish va bibliografik xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha bilimlarni olganmiz. Biroq sohani yaxshi tushunmagan komissiyalar

bilib-bilmay bir qancha “kamchiliklar” topib ketishadi. Kam ta'minlangan oila farzandlarining hujjatlarini ham kutubxonachi tayyorlaydi.

Kutubxonalar bugungi kun talabiga javob berishi uchun, eng avvalo, kadrlar masalasi hal etilishi, kompyuterlashtirilishi, ijara darsliklari narxlarining ertaroq chiqib kelishi, darsliklarning vaqtida maktablarga yetib borishini ta'minlash zarur. Yetishmagan darslik uchun ham bosh aybdor kutubxonachi. Vaholanki buyurtmalik shakllantirayotgan vaqtida joriy yildagi sinflar soni qo'yiladi, maktablardan kelib chiqib butun tuman o'quvchilari soniga mo'ljallanmaganligi darsliklar yetishmovchiligini keltirib chiqaradi.

Yo'qolgan darsliklar o'rinni qoplash uchun tumanda yoki viloyatda darsliklar va ijara darsliklarining nizomda belgilangan narxlarda sotuvini yo'lga qo'yish kerak.

Kutubxonachi qilgan bitta tadbir butun maktabning tadbiriga aylanib keta-



Maktab kutubxonachisi mavqeyi qachon oshadi?

12 yil davomida kutubxonachilikni o'ziga qaratgan vaqtini o'tkazgan. Uning maqsadi va sport maqsadli qabul qilishidir. Uning o'ziga qaratilgan maqsadidir.

Uning maqsadi va sport maqsadli qabul qilishidir. Uning o'ziga qaratilgan maqsadidir.

Uning maqsadi va sport maqsadli qabul qilishidir. Uning o'ziga qaratilgan maqsadidir.

Uning maqsadi va sport maqsadli qabul qilishidir. Uning o'ziga qaratilgan maqsadidir.

Uning maqsadi va sport maqsadli qabul qilishidir. Uning o'ziga qaratilgan maqsadidir.

Ba'zi maktablarda hatto darsliklar yetishmaydi

Maqolada bildirilgan fikrlar, takliflar juda o'rinli deb bilaman. Prezidentimiz sa'y-harakatlari bilan bugun yurtimizda kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni oshirish, kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish ishlari jadal rivojlanmoqda. Shu asnoda maktab kutubxonalarini sharoitini yaxshilashga ham e'tibor qaratilsa juda ham soz ish bo'lardi. Axir ba'zi maktablarda hatto darsliklar yetishmayapti. Kutubxonachining maoshi mehnatiga yarasha emas, zero moddiy manfaatdorlik yaxshi bo'lsa ishning samarasi ham oshadi. Biz maktab kutubxonachilari Xalq ta'limi vazirligidan, shu masalaga mas'ul boshqa idoralardan kutubxonachilar faoliyati va mavqeyini oshirishga e'tibor qaratishlarini so'raymiz.

Kutubxonachi bu pedagog, psixolog, kerak bo'lsa, har bir sohaga oid bilimga ega bo'lgan, kasbining fidoyi zahmatkashidir.

Gulchehra G'OFUROVA,
Kosonsoy tumanidagi
9-IDUMI kutubxonachisi

Muhtaramxon Sottiyevaning maqolasida kutubxonachilarning faoliyatidagi bir qator kamchiliklar ko'tarilibdi. Afsuski, bu kamchiliklarni aytib, ado qila olmaymiz.

Darhaqiqat, bizning eng katta muammolarimizdan biri darsliklarni maktabga olib kelish, utilizatsiya qilish. Og'ir yuk zalvori ayolligimizni yana bir bor eslatadi va kimgadir yalinishga majbur qiladi. Darsliklar ayrim maktablarda 2-qavat-

O'quvchining maktabdan so'ng repetitora ehtiyoji bo'lmasligi kerak!

ning oxirgi xonalarda birida saqlanadi. Kutubxonachi o'sha yerdan dasta-dasta kitoblarni ko'tarib tushib, qop-qop qilib utilizatsiya uchun olib borishi kerak.

O'quvchilarni kitobga qiziqtirishga kelsak, kitob o'qiyman degan bolalarimizning 80-90 foizi repetitordan bo'shamaydi. Qachonki o'quvchi fanlarni maktabda o'zlashtira olsa bo'sh vaqti badiiy kitob o'qiydi, tadbirlarga astoydil qatnashadi. Hozir-chi, ular soat 14:00 dan 18:00-19:00 gacha repetitor bilan band bo'ladi. Bir talay vazifani bajarsinmi, uy ishlariga qarashsinmi, qo'shimcha darsini qilsinmi yoki badiiy kitob o'qisinmi? Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan bemalol ishlaymiz, katta sinf o'quvchilarining esa vaqti juda kam. Berish uchun, avvalo, maktab ta'limi talabiga javob berishi, o'quvchining maktabdagi darsdan so'ng repetitora ehtiyoji bo'lmasligi lozim. Shundagina u badiiy kitob o'qishga, kitobxonlik tadbirlariga bemalol vaqt ajratadi.

Maqola bilan tanishgach uzoq yillardan beri kutubxonachilikning mashaqqatli xizmatlariga ko'nikkan bir mutaxassis sifatida fikrlarimni bildirgim keldi. O'z ishini ardoqlaydigan kutubxonachi vazifasiga doim mas'uliyat bilan yondashadi. Maqola muallifi juda dolzarb, ayni damda shu vaqt-gacha e'tibordan chetda qolib kelayotgan masalani tilga olgan.

Kutubxonachi qancha ishlamasin, munosib taqdirlanmaydi

Kutubxona — maktabning yuragi, deya to'g'ri e'tirof etilgan. Muallif tilga olgan barcha fikrlarni to'la tasdiqlagan holda, ularga qo'shimchalar kiritishni lozim topdim, vaholanki, bu deyarli barcha kutubxonachilarning dardi, tashvishi.

Yangi o'quv qo'llanmalarini yetkazish, ta'mirlash, yig'ish, tarqatish ishlari, asosan, bizning zimmamizda. Kutubxona ishi, muallif aytganidek, boshqalar nazarida oson ko'ringani bilan, aslida yumushlari bisyor. Yangi badiiy kitoblar bilan boyitib borish, matbuot nashrlari bilan ta'minlash va ularni saqlash, pedagogik jamoaga zarur axborotlarni yetkazish kutubxonachi zimmasida. Tanlovlar, uchrashuvlar, davra suhbatlariga kutubxonada tayyorgarlik ko'riladi. Men bir o'quv yili davomida adabiy-badiiy kechalar va bir qancha kitob targ'ibotlari, suhbatlar, ovozi o'qishlar o'tkazaman. Ammo bu ishlarimiz munosib taqdirlanmaydi. Axir o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida bizning ham hissamiz bor-ku!

Men maktab kutubxonachilarining faoliyati atroficha o'rganilishi va tartibga solinishi hamda mehnatiga yarasha ish haqi to'lanishiga umid qilishda davom etaman.

Feruza MAMASODIQOVA,
Buloqbochi tumanidagi
6-maktabning kutubxona mudirasi

Biz o'z kasbimizni sevamiz va ulug'laymiz. Bajaradigan ishlarimiz talaygina bo'lsa-da, agar xizmatlarimiz o'quvchilarning ta'limini yuksaltirishga xizmat qilsa, nolimaymiz. Maoshimiz ishimizga arziqli darajada belgilansa ishlashdan charchamaymiz.

Quyida maktab kutubxonachiligini isloh qilish borasida takliflarimni bildirib o'tsam:

– 500 nafardan ziyod o'quvchisi bor maktablarga 2 ta kutubxonachi shtati berilsa;

- kutubxonalariga zamon talabiga javob beradigan xonalar, jihozlar ajratilsa;
- oylik ish haqi har tomonlama o'rganib chiqilgan holda belgilansa;
- darsliklar o'z vaqtida maktabga yetkazib berilsa;
- utilizatsiya qilingan kitoblar maktablardan olib ketilsa;
- bibliografik jihozlar, kitoblarga beriladigan ishlav uchun mablag' ajratilsa;
- kutubxona tozaligi uchun farrosh ajratilsa;
- kutubxona uchun kompyuter va printer ajratilsa;
- kutubxonachining sog'ligini tiklash uchun davolanishiga sanatoriyalarga arzon narxda yo'llanma berilsa nur ustiga nur bo'lar edi. Bu oddiygina bir kutubxonachining xayoliy orzulari. Ajab emas amalga oshsa.

Rayhon RAJABOVA,
Dehqonobod tumanidagi
1-maktabning kutubxona mudirasi

Tahlil

Pedagoglar attestatsiyada qanday natija ko'rsatishdi?

2021-yilda o'tkazilgan pedagog kadrlar attestatsiyasiga jami **175 ming 18 nafar** pedagog jalb qilingan bo'lib, shulardan:

2 237 nafari maktabgacha ta'lim tashkilotlari,

168 928 nafari umumiy o'rta ta'lim muassasalari,

3 094 nafari o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari,

759 nafari maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagoglaridir.

2021-yilda attestatsiyadan o'tadigan pedagog kadrlar to'g'risidagi ma'lumotlar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining <http://pka.tdi.uz/> ma'lumotlar elektron bazasiga kiritildi. (Qo'shimcha ma'lumot: mazkur bazaga uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan 600 mingga yaqin pedagog kadrlar haqidagi ma'lumotlar va attestatsiya natijalari kiritilgan).

Oliy, birinchi malaka toifalari hamda bosh va yetakchi o'qituvchi lavozimlari, shuningdek, Xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar uchun malaka (test) sinovlari joriy yilning mart-may oylarida Davlat inspeksiyasi tomonidan real vaqt rejimida, onlayn tarzda, barcha qulayliklar yaratilgan, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlangan oliy ta'lim muassasalari va Davlat inspeksiyasining binolarida o'tkazildi.

Malaka (test) sinovlarida ishtirok etishi kerak bo'lgan **161 ming 400 nafar** pedagogdan **155 ming 134 nafari** qatnashib, davomat **96,1 foizni** tashkil qildi. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarining 9 595 nafar jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun nazariy va amaliy shaklda tashkil qilingan malaka sinovlarida 9 016 nafar o'qituvchi ishtirok etib, davomat 93,9 foizni tashkil qildi.

Malaka (test) sinovlari natijalari ta'lim turlari bo'yicha tahlil qilinganida quyidagi holat kuzatildi:

Xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifalariga talabgor pedagoglar uchun o'tkazilgan test sinovlarida ishtirok etishi kerak bo'lgan **158 ming 496 nafar** pedagogdan **153 ming 524 nafari** ishtirok etib, davomat **96,8% foizni** tashkil qildi.

Test sinovlarida 4 972 (3,2 foiz) nafar pedagog turli sabablarga ko'ra ishtirok etmadi, shuningdek, **284 nafar pedagog** o'rtaligi tartibni buzganligi (taqiqlangan manbalardan yoki telefondan foydalanish, o'miga boshqa odam kirishi kabi holatlar) uchun test jarayonlaridan chetlatildi.

Malaka (test) sinovlari natijalarining tahlillariga ko'ra, pedagoglarning o'rta ko'rsatkichi 58,7 balmi tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2020-yilgi 55,9 balga nisbatan +2,8 balga oshganligi kuzatildi.

Pedagoglarning o'rta ko'rsatkichlari bo'yicha Xorazm (o'rta 64,2 ball), Buxoro (o'rta 63,2 ball) va Navoiy (o'rta 61,5 ball) viloyatlari boshqa hududlarga nisbatan yuqori natijalarni qayd etishdi.

Surxondaryo (o'rta 55,3 ball), Qashqadaryo (o'rta 55,0 ball) va Toshkent (o'rta 54,8 ball) viloyatlari boshqa hududlarga nisbatan past natija ko'rsatdi.

Pedagog kadrlar qayd etgan natijalar o'tgan 2020-yilga nisbatan taqqoslab o'rganilganda barcha hududlarda **natijalarning oshganligi kuzatildi (1-jadval).**

Surxondaryo (55,3 ball), Qashqadaryo (55,0 ball) va Toshkent (o'rta 54,8 ball) viloyatlari o'rta ko'rsatkichlari bo'yicha so'nggi ikki yilda ham Respublikada oxirgi o'rinlarda bo'lishi ushbu viloyatlarda pedagoglarning o'z ustida ishlashi va malakasini oshirishlariga yetarli e'tibor qaratilmayotganidan dalolat bermoqda.

Test sinovlarida ishtirok etgan pedagog kadrlar ko'rsatkichlarini 100 ballik reyting tizimi asosida tahlil qilganda, ishtirok

Bu holat hududlar kesimida tahlil qilinganida **Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari** pedagoglari orasida 55 baldan past ball to'plaganlar salmog'i yuqori ekanligi tashvishli.

O'quv fanlari bo'yicha o'rta ballar 2020-yilga nisbatan taqqoslab o'rganil-

ganda rus tili va adabiyoti(rus)dan o'rta 66,5 ball (2020-yilga nisbatan -1,7 ball), matematikadan 55,7 ball (-5,4 ball), ingliz tilidan 54,4 ball (-1,6 ball) past ko'rsatkichlar kuzatildi. Qolgan fanlardan esa natijalar oshganini ko'rish mumkin (**2-jadval**).

№	O'quv fani	2021-yil	2020-yil	farqi
		O'rta ball	O'rta ball	
1	Boshlang'ich ta'lim	58,7	56,1	+2,6
2	Rus tili va adabiyoti (rus)	66,5	68,2	-1,7
3	Fizika	59,7	52,0	+7,7
4	Biologiya	56,4	51,9	+4,5
5	Ona tili va adabiyot	60,0	55,8	+4,2
6	Matematika	55,7	61,1	-5,4
7	Geografiya	61,6	52,6	+9,0
8	O'zbek tili (Davlat tili)	60,8	53,5	+7,3
9	Kimyo	61,3	51,4	+9,9
10	Tarix	59,4	51,7	+7,7
11	Ingliz tili	54,4	56,0	-1,6
12	Fransuz tili	56,3	50,3	+6,0
13	Informatika	59,3	54,1	+5,2
14	Iqtisodiy bilim asoslari	56,4	53,9	+2,5
15	Nemis tili	66,0	65,3	+0,7
16	Rus tili (milliy maktablar)	58,7	58,4	+0,3

Ma'lumki, 2021–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi o'quvchilari ilk marotaba o'quvchi-yoshlar bilimlarini baholashning PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishadi. Mazkur tadqiqotlar o'tkaziladigan o'quv fanlari bo'yicha pedagoglar qayd etgan natijalar tahlili esa quyidagi natijalarni ko'rsatmoqda (**3-jadval**).

№	O'quv fani	Ishtirokchilar soni	O'rta ball	86–100 ball		71–85 ball		56–70 ball		55 va undan past ball	
				soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi
1	Biologiya	7796	56,4	298	3,8	1605	20,6	2387	30,6	3506	45,0
2	Boshlang'ich ta'lim	37345	58,7	427	1,1	6724	18,0	16935	45,3	13259	35,5
3	Fizika	5814	59,7	148	2,5	1271	21,9	2363	40,6	2032	35,0
4	Geografiya	5789	61,6	271	4,7	1455	25,1	2266	39,1	1797	31,0
5	Informatika	5094	59,3	112	2,2	919	18,0	2301	45,2	1762	34,6
6	Ingliz tili	15959	54,4	309	1,9	2706	17,0	5312	33,3	7632	47,8
7	Kimyo	5421	61,3	441	8,1	1308	24,1	1754	32,4	1918	35,4
8	Matematika	13879	55,7	631	4,5	2335	16,8	4244	30,6	6669	48,1
9	Ona tili va adabiyot	17355	60,0	1417	8,2	3751	21,6	5580	32,2	6607	38,1
10	Tarix	10194	59,4	614	6,0	2466	24,2	3261	32,0	3853	37,8
				298	3,8	1605	20,6	2387	30,6	3506	45,0

etgan **153 ming 524 nafar** pedagog shunday natija ko'rsatdi:

86 – 100 ball (a'lo) — 5813 (3,8%) nafar;

71 – 85 ball (yaxshi) — 31316 (20,4%) nafar;

55 – 70 ball (qoniqarli) — 57975 (37,8%) nafar;

55 baldan past (qoniqarsiz) — 58 420 (38,1%) nafar.

Test sinovlarida ishtirok etganlardan **58 ming 420 (38,1%) nafari 55 baldan past ball to'plab "QONIQARSIZ"** natija qayd etganligini tashvishli holat sifatida qabul qilishimiz kerak.

Attestatsiya natijalariga ko'ra 11 ming 670 nafar pedagogga oliy malaka toifasi, 35 ming 867 nafariga birinchi malaka toifasi, 38 ming 420 nafariga ikkinchi malaka toifasi berildi hamda ularning barchasiga belgilangan muddatlarda "Pedagog kadrlar attestatsiyadan o'tganligi to'g'risida sertifikat" tarqatildi (**4-jadval**).

№	Hudud	Attestatsiya natijalariga ko'ra berilgan malaka toifalari		
		Oliy	Birinchi	Ikkinchi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	714	2419	3094
2	Andijon viloyati	930	2291	3297
3	Buxoro viloyati	1224	3292	2913
4	Jizzax viloyati	512	1544	1702
5	Qashqadaryo viloyati	805	2955	3262
6	Navoiy viloyati	834	2326	2404
7	Namangan viloyati	1205	3520	2926
8	Samarqand viloyati	705	2899	3427
9	Surxondaryo viloyati	529	2222	3427
10	Sirdaryo viloyati	372	1121	1119
11	Toshkent viloyati	609	2103	2306
12	Farg'ona viloyati	1406	4146	3852
13	Xorazm viloyati	1537	3878	3292
14	Toshkent shahri	378	1151	1399
	Jami:	11760	35867	38420

Attestatsiya jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish, shubhasiz, pedagog kadrlarning o'quv fani bo'yicha malakasi, dars o'tish mahorati, mehnati samaradorligi va kasb mahoratining oshirilishiga, ularning malaka toifalari uchun haq to'lash miqdorini oshirish orqali moddiy sharoitlarini yaxshilashga hamda o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Safarali HAMROYEV,

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bo'lim boshlig'i

№	Hudud nomi	O'rta ko'rsatkich ball		
		2021-y	2020-y	farqi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	57,2	53,6	+3,6
2	Andijon viloyati	59,2	54,9	+4,3
3	Buxoro viloyati	63,2	60,7	+2,5
4	Jizzax viloyati	57,4	54,8	+2,6
5	Qashqadaryo viloyati	55,0	50,5	+4,5
6	Navoiy viloyati	61,5	57,8	+3,7
7	Namangan viloyati	60,8	58,3	+2,5
8	Samarqand viloyati	56,6	54,3	+2,3
9	Sirdaryo viloyati	56,9	55,6	+1,3
10	Surxondaryo viloyati	55,3	51,7	+3,6
11	Toshkent viloyati	54,8	54,2	+0,6
12	Farg'ona viloyati	60,9	58,1	+2,8
13	Xorazm viloyati	64,2	59,8	+4,4
14	Toshkent shahri	59,7	57,5	+2,2
	Respublika bo'yicha	58,7	55,9	+2,8

Sinab ko'ring

O'yin va o'rganish siri

Maktab o'quvchilariga chet tilini o'qitishda odatda "Sinkveyn", "Let's with uz", "Zig-zag", "Insert", "Five way", "Diamond" usullaridan foydalanaman. Bolalarning diqqatini darsga jalb qilishning evristik (zerikarli grammatikani qiziqarli va samarali o'rgatish usuli) hamda empatik (obyektga kirish) usullari mavjud bo'lib, asosan ikkinchi yo'lni tanlayman. Bunda o'quvchi biror predmet holatiga kirish va his qilish orqali uni bilishga urinadi. Masalan, mushuk, qalam, taxta, yog'och, bulut va boshqa narsalarning mohiyatini o'rganishadi.

O'quvchi fikrini og'zaki, yozma va rasm shaklida ifodalashi mumkin. O'g'il-qizlardan doskaga istalgan predmet nomlarini yozishi (a pen – ruchka, a pencil – qalam, a book – kitob, a copy-book – yozuv daftar, a cap – chashka, a sweet – shirinlik, a ball – koprok, a stone – tosh, a plastic bag – plastik so'mka) so'raladi. Keyin har bir o'quvchi predmetlardan birini tanlab, 10 – 15 daqiqa ichida (may/ might/ must/ can/ could + infinitive; may/ might/ must + Present Participle; may/ might/ must/ can/ could + Have + Past Participle) — (mumkin-shart-qila olmoq) grammatik struk-

turasi bo'yicha uni tasvirlab berishi so'raladi.

"Diamond" usulida ham sinfdagi o'quvchilardan biri doskaga chiqariladi, qolgan o'quvchilar unga biror jonsiz predmet, masalan, bananni tasvirlab beradilar, u esa nimaligini topishi kerak. Buning uchun o'quvchilar it can/ must/ should be +V3 strukturasidan foydalanadilar.

Masalan: It can be eaten. It must be eaten fresh. It should be peeled (U yeya oladi. U baliq yeyishi shart. U tozalaydi). O'z vaqtida ushbu topishmoqning javobini qidirayotgan o'quvchi quyidagi savollar bilan murojaat etishi mumkin: Can it

be broken? Should it be eaten? (U sinadimi? U ovqatlanadimi?)

Bundan tashqari, o'quvchilarning dunyoqarashini o'stirishga qaratilgan "Date – kun", "Season – fasl", "Week – hafta", "Weekdays – hafta kunlari", "Calendar – taqvim", "Months – oylar", "Holiday – bayram", "Year – yil", "Numbers – sanoqlar" mavzularida bolalar bilgan ma'lumotlarini qayd etishadi. Ularning so'zlari to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishiga qaramay, qabul qilinadi. Bu o'rinda o'qituvchining roli o'quvchilarni fikrlashga, o'z fikrlarini erkin bayon etishga undashdir. Mazkur texnologiya bo'yicha miyada paydo bo'lgan fikrlar bir so'zni ifodalashga qaratiladi. Har bir yangi so'z asosiy so'zga bog'lanib, umumiy bir zanjir hosil qiladi. Bu "cluster" usulidir.

"Sinkveyn" usuli esa fransuz tilidagi "beshlik" so'zidan olingan bo'lib, besh qatordan iborat she'rmi nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar bir-biri bilan maslahatlashgan holda, 5 – 7 daqiqa ichida tanlangan mavzuni birinchi qatorga bitta, ikkinchisiga ikkita, uchinchisiga uchta, to'rtinchisiga to'rtta so'z orqali ifodalab

berishlari va nihoyat beshinchi qatorda xulosa bo'lishi kerak. Masalan, quyidagi so'zlar qo'llaniladi:

It's a Wonderful planet we live on – bu biz yashayotgan sayyora, earth earthquake – zilzila, beautiful – chiroyli, blue – ko'k, live – yashash, produce – ishlab chiqarish, pollute damage – zarar yetkazish, destroy – yo'q qilish, break – sindirish, can be kind – yaxshi bo'la oladi, can hurt may be awful – zarar yetkazishi mumkin.

"Insert" usulida gapirishdan avval ushbu so'zning kengaytirilgan shakliga izoh beramiz:

I – interactive – interaktiv,
N – noting – qayd etuvchi,
S – system – sistema,
E – effective – samarador,
R – reading and – o'qish va
T – thinking – fikrlash uchun.

O'quvchilar biror matnini o'qish jarayoni "V" – bilardim, "+" – yangi, "-" – boshqacha o'ylagan edim, "?" – tushunmadim, savollari bor shaklidagi jadvalni to'ldirib ketadilar. Bu ularni diqqatini jamlash, fikr yuritish va mazmunga e'tibor berishga o'rgatadi.

Bunday usullar orqali o'quvchilarning xorijiy tillarga qiziqishini oshirish, interaktiv muhit yaratish, samarali natijaga erishish mumkin.

Shoyista ABDUJALILOVA,
Farg'ona ixtisoslashtirilgan olimpiya
zaxiralari maktab-internati o'qituvchisi

Tajriba

Ravon o'qish sirlari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish, ravon o'qishga erishish muhim vazifalardan biri. Tajribamdan kelib chiqib, bolalarning ravon o'qishiga qanday erishish mumkinligi haqida ko'p izlandim. Izlanishlarim natijasida o'qish darslari vazifalarini tuzdim:

— o'quvchilarda tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish;
— borliq, tevarak-atrof haqidagi bilimlarini boyitish;
— kitobga mehr-muhabbat uyg'otish, teran fikrlovchi kitobxonlarni yetishtirish;

— nutq va dunyoqarashini o'stirish;
— ijobiy sifatlarini kamol toptirish;
— adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Bu jarayonni uch bosqichda amalga oshirish mumkin:

— savod o'rgatish jarayonida so'zlarni bo'g'inlab o'qish;
— so'zlarning talaffuzi va ma'nosini anglash — sidirg'a o'qish;
— avtomatlashgan o'qish.

Demak, to'g'ri o'qish — so'zlarni xato qilmasdan, yangilishmasdan, grammatik shaklini buzmasdan, biror tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmasdan, so'zning urg'usiga rioya qilib o'qish demakdir. To'g'ri o'qishni ta'minlash uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

— matndagi o'qilishi qiyin, murakkab so'zlarni aniqlab, ular ustida ishlash;

— ma'nosi tushunarsiz so'zlarni lug'at orqali o'quvchilarga tushuntirish;
— o'quvchilarning o'qish sur'atiga qarab o'qitiladigan qismini belgilab olish;

— doimiy nazorat ostida o'qitish;
— o'qish tezligini aniqlash.

Bolalarning ravon o'qishini ta'minlash uchun turli metodlardan foydalanaman. Masalan, "She'rni tikla" yoki "Begona so'z" mashqi, "Boshqasi kelib qoldi" yoki "Tushib qoldim, topib oldim" mashqlari.

Xullas, dars jarayonida barcha o'quvchilarni birday jalb etish, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga imkon qadar ko'proq topshiriq berish, iqtidorli bolalarni zeriktirib qo'ymasdan so'rash shakllarini yangilab turish, rag'batlantirish usullarining eng afzallarini qo'llash o'quvchilarning fanga, o'qishga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi. Buning uchun o'qituvchi ham izlanuvchi va bolajon bo'lmog'i lozim.

Jahonbibi MAMATALIYEVA,
Denov tumanidagi
17-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Mulohaza

Bola tarbiyasi metodikasi, turli psixologik o'yinlar xususida ko'p o'qiganmiz. Murg'ak qalb bilan ishlayotgan har bir kasb egasi, avvalo, boladek o'yilashi va fikrini bola tilida izhor etishni bilishi kerak. Quyida aytmoqchi bo'lgan fikrlarimiz bot-bot takrorlangan bo'lsa-da, sizga maqsadimizni tushuntirish ilinjida yana bir bor to'xtaldik.

Shaxsiy namuna va me'yor

Bola tarbiyalashda har bir ota-ota o'z uslubiga ega bo'lganidek, har bir pedagogning ham o'z tarbiyaviy metodi bor. Misol uchun, qaysidir ota-ona bolaga qattiqqo'llik qilish shart deb bilsa, boshqasi buni rad etadi. Dunyoning eng nomdor psixologlari esa bola tarbiyasida asosiy tamoyil me'yor ekanligiga urg'u berishgan. Shuningdek, ota-ona farzandiga "shuni qilishing kerak", "buni yeyishing shart" deyishi emas, avvalo, o'zi shaxsiy namuna, tashabbus ko'rsatishi lozim.

Darhaqiqat, mutaxassislar ham kabi tavsiyalarini deyarli barcha ota-onalar amaliyotda sinab ko'rishgan. Masalan, siz qiziqingizning ko'z oldida tikish ishlari bilan shug'ullangan yoki kitob o'qing, u o'z o'zidan bu narsaga qiziq boshlaydi. Shu ishni qilishini yuz marotaba takrorlasangiz-u, shaxsiy namuna ko'rsatmasangiz barchasi befoyda. Ota va o'g'il orasida ham bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Farzandlari orasida ota yoki ona kasbini egallashi natijasida shifokorlar, muallimlar, san'atkorlar, kulollar va hokazo kasb egalari ning sulolasi paydo bo'ladi. Shu o'rinda, fikrlarimga "yo'q, unday bo'lmagan holatlar ham mavjud" deya e'tiroz bildirishingiz ham mumkin. Qaysidir ma'noda haqlisiz. Keling, nega sho'irning o'g'li sho'ir, raqqosaning qizi raqqosa (kasblar shunchaki misol keltirilmoqda) bo'lmagan holatlarga oydinlik kirit-sak. Bu aks tarbiya olish hisoblanadi. Har

kuni ishdan qaytib bir xil gapni takrorlang: "Uf, shunday charchadim, shu kasbni tanlamasdan, falon kasbni tanlamas bo'lmasmidingi. Ana qo'shnimiz (tog'a, amma, amaki va h.k)ni qara, falon kasb egasi, unga mazza". Farzandingizda sizning kasbingizga nisbatan negativ qarash paydo bo'la boshlaydi. Va, o'z o'rinda siz "mazza" deb ta'riflagan o'sha kasbga qiziq boshlaydi.

Bolada biror-bir xarakter shakllanishi yoki kasb tanlashida muhim rol o'ynaydigan shaxslardan yana biri — o'qituvchilardir. O'qituvchilardan nega bu kasbni tanlaganini so'rab ko'ring, 30 foizi birinchi ustoziga havas qilib shu kasbga mehr qo'yganini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham, farzandimizni risoladagidek tarbiya qilishni istasak, har bir so'zimiz va xatti-harakatimizga nihoyatda hushyor bo'lmog'imiz lozim. Ayniqsa, biz ahamiyatsiz deb hisoblagan oilaviy suhbatlarda.

Bola tarbiyasi xususida so'z yuritar ekanimiz, mavzular juda ko'p. Ularning har biriga chuqurroq to'xtalish lozim. Shu bois hamkasblarimizning bu boradagi fikr-mulohazalari, ish tajribalaridan namunalar kutib qolamiz. Sizning ish va hayotiy tajribangizdan keltirilgan misollar yosh amaliyotchi psixologlar uchun mahorat darsi vazifasini o'taydi.

Zilola SHOKIROVA,
Zangiota tumani xalq ta'limi
bo'limi psixologi

"Qizlar kelajakda uy-ro'zg'or ishlari, farzand tarbiyasi uchun mas'ul. Shu bilan birga har birining jamiyatda o'z o'rnini, biror kasbi bo'lishi kerak. Ana shunda hayotga boshqacha ko'z bilan qaraydi".

"Mening qizlarim o'qishi kerak!"

deya maqsad qilgan otaning 7 qizi o'qituvchi bo'ldi

Ziyoli oila — kelajak uchun zaruriy tayanch. Chunki unda ilmiy kishilar, yurt ravnaqi uchun bosh qotiradigan, ilm-fan rivojiga hissa qo'shadigan insonlar tarbiyalanadi. Ana shu ziyoli oila bir emas, bir necha o'qituvchini jamiyatga hadya etgan bo'lsa-chi?

Yakkabog' tumanidagi G'urjog' qishlog'ida Eshmurodovlar oilasi bor. Qishloqda bu oilani hurmat qilmaydigan, unga havas qilmaydigan kishi yo'q.

Oila boshlig'i Mahmasaid ota jamoa xo'jaligida hisobchi bo'lib ishlab, haloligi, ilmga chanqoqligi bilan barchaning hurmatiga sazovor inson bo'lgan. Mahmasaid ota va Soraxol ona sakkiz qiz va ikki o'g'il ko'rishgan.

— Ota-onamiz oddiy va sodda insonlar edi, — deydi xotiraydi Yakkabog' tumanidagi 37-maktab o'qituvchisi Muhabbat Eshmurodova. — Ammo otam hammamizni oliy ma'lumotli qilishni, qizlari o'qituvchi bo'lishini orzu qilgan. Buning uchun bizning ta'lim olishimiz bilan shaxsan o'zi shug'ullanardi. Kitoblar o'qitirar, o'zi dars qildirar, maktab-

— Ota-onamizning bizga ishonchi yanada yaxshi o'qishga undardi, — deydi bolalik xotiralarini eslarkan Xolbeka opa. — Imtihonlardan yiqilish, past baho olish biz uchun uyat edi. Otamdan qo'rqqanimizdan ham har bir sinovga zo'r tayyorgarlik ko'rardik. Universitetga yuqori ball bilan kirishimga sabab shu edi. Ikki qizim ham onasi va xolalari izidan borib o'qituvchilik kasbini tanlashdi, hozir oliyog'ida tahsil olishyapti. Otam, hatto, oilamiz kelinlarini ham oliy ma'lumotli qilish uchun harakat qilardi. Kelinimiz ham pedagogika yo'nalishida sirtidan o'qib, o'qituvchi bo'ldi.

37-IDUMda Xolbeka opaning singillari Marziya va Laylo Eshmurodovalar ham ko'p yillik tajribali ustoz san-



dagi baholarimizni nazorat qilardi. Otamning orzusi bizning ham orzumizga aylandi. Oilamizdagi har bir qiz muallim bo'lish ishtiyogida katta bo'ldi. Birin-ketin maktabni bitirib, hammamiz o'qituvchilik kasbini egallash uchun oliy o'quv yurtlarida tahsil oldik. 7 nafar opa-singil o'qituvchi bo'ldik. Oramizda faqat eng katta Guloy ismli opamiz oliy ma'lumot ololmay qoldi. Oilaning kattasi edi-da, uning mas'uliyati ko'p bo'lgan. Ammo opam hammamizga bosh. Maslahatgo'y, duog'o'yimiz.

Pardaxol Eshmurodova o'qituvchi opa-singillar ichida kattasi. Toshkent davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlab, tug'ilib o'sgan qishlog'idagi o'zi tahsil olgan 37-maktabda faoliyat boshladi. Oliy toifali o'qituvchi Pardaxol opa 32 yil boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berdi.

Pardaxol opadan keyingi farzand Muhabbat Eshmurodova ham oliy toifali o'qituvchi. Samarqand davlat pedagogika institutining Boshlang'ich ta'lim va metodikasi fakultetini tamomlab, 35 yil boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib faoliyat yuritdi. Muhabbat opa 1993-yili "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni va 1995-yili "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

Maxfirat Eshmurodova esa bugungi kunda Yashnobod tumanidagi 255-maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim beradi. 40 yillik ish faoliyati davomida Maxfirat opa o'z ishiga mas'uliyatli, bilimdon, g'ayratli pedagog sifatida ko'plarning nazariga tushdi. Xuddi shu maktabda Maxfirat opaning singlisi Dildor Eshmurodova ham matematika fani o'qituvchisi bo'lib ishlab kelmoqda.

— Hayotda nimagaki erishayotgan bo'lsak, har biri uchun otamga rahmatlar aytmiz, — deydi Maxfirat opa. — Otam juda qattiqqo'l bo'lishiga qaramay, mehribon, uzoqni ko'ra oladigan, tushungan, o'qimishli, mehnatkash inson edi. Bizni ham mehnatdan qochmaydigan qilib tarbiyaladi. "Qizlar kelajakda uy-ro'zg'or ishlari, farzand tarbiyasi uchun mas'ul. Shu bilan birga har birining jamiyatda o'z o'rnini, biror kasbi bo'lishi kerak. Ana shunda hayotga boshqacha ko'z bilan qaraydi. O'ziga ishonchi ortadi. Shuning uchun mening qizlarim o'qiydi", deb ko'p gapirardi.

Xolbeka Eshmurodova esa o'z qishlog'idagi 37-maktabda fizika fanidan 31 yildan buyon saboq beradi.

alishadi. Xususan, Marziya Eshmurodova matematika fanidan nafaqat qishloqda, balki qo'shni tumanlarda dong'i ketgan o'qituvchi sanaladi. O'quvchilari oliy ta'lim muassasasiga kirishda peshqadam. Jumladan, 2020-2021-o'quv yilida Marziya opa oliy ta'limga kirishga tayyorlagan 35 o'quvchisidan 34 nafari talaba bo'ldi. Hatto, o'quvchilari orasida xalqaro matematika olimpiadasi g'oliblari ham bor. 2016-yili 7-sinf o'quvchisi Shohbek Mahmudov Tailand shahrida o'tkazilgan xalqaro matematika olimpiadasida O'zbekiston jamoasi 2-o'rinni egallashiga hissa qo'shdi. Aynan, Marziya Eshmurodovaning tashabbusi bilan Yakkabog' tumanidagi 37-maktab aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktabga aylantirildi. Bugungi kunda Marziya Eshmurodova maktabdagi vazifasidan nafaqaga chiqqan bo'lishiga qaramay, xususiy o'quv markazi ochib, o'g'il-qizlarga repetitorlik kurslari orqali ta'lim bermoqda. Bu ishda o'g'li Adham Nosirov ko'makchilik qilyapti. Adham ham matematika va fizika o'qituvchisi. U talabaligidan buyon o'z fanidan o'quvchilarga qo'shimcha darslar berib, ko'plab abituriyentlarning talaba bo'lishiga yordam bergan. Bu yil O'zbekiston Milliy universitetini bitirib kelgan yosh mutaxassis bo'lishiga qaramay, bilimdonligi bilan barchaning e'tiboriga tushgan ustozga aylandi.

Bugun 7 opa-singil Eshmurodovalar Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatidagi minglab yoshlarning sifatli bilim olishlariga hissa qo'shib, hayotda o'z o'rinlariga ega bo'lishlariga yordam berib kelishyapti. Ular tarbiyalagan shogirdlar yurtimiz ravnaqi yo'lida xizmat qilishmoqda. Eshmurodovalarimiz farzandlari orasida ham ko'plab o'qituvchi-muallimlar yetishib chiqdi va kamolga yetishyapti.

7 opa-singil o'qituvchilarning birortasi ham o'rtamiyona o'qituvchi emas. Oliy va I-toifali, tajribali, maktab va mahalla, ota-onalar tomonidan ardoqlab, e'tirof etib kelinayotgan ustozlar. Darhaqiqat, Mahmasaid otaning orzusi mukammal darajada ushlanganidir!

"Mening qizlarim o'qishi kerak" degan oliy hayotiy maqsad marhum otaga minglab rahmatlar keltirmoqda. Xulosa shulki, har bir inson o'z hayotining oliy maqsadini farzandlar ta'limiga qarataishi zarur.

Zilola MADATOVA,
"Ma'rifat" muxbiri



Nasiba Ochilova o'z kasbi ortidan e'zoz va hurmat topgan ustozlar sirasiga kiradi. Undan saboq olgan o'quvchilar muallimning har bir o'g'itini yodda saqlab qolishadi.

O'quvchi ko'nglidan joy olish – baxt

Bilimga chanqoq, shijoati baland ustoz bolaligidan ona tili va adabiyot faniga juda qiziqardi, o'qituvchi bo'lish orzusi edi. Qarabsizki, orzu-istaklari ijobat bo'lib, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kiradi. 1983-yili oliyog'ohni muvaffaqiyatli tamomlaydi. So'ng o'zi tahsil olgan Kitob tumanidagi 40-maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars bera boshladi.

Nasiba opa o'z ustida tinimsiz ishlaydi, har bir darsga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab, alohida tayyorgarlik bilan maktabga keladi. Shuning uchun bo'lsa kerak u har bir o'quvchining qalbidan alohida joy egallaydi.

Maktabga qachonlardir yoshgina mutaxassis bo'lib ishga kelgan muallim bugun o'z hurmati, o'rmiga ega mahoratli pedagog bo'lib shakllandi. Nafaqat o'quvchilarning, balki o'nlab o'qituvchilarning mehr qo'rgan ustoz. Hozirgi kunda Nasiba opaning shogirdlari u bilan birga yelkama-yelka faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Yosh pedagoglar Yulduz Qurbonova, Orzigul Arslonova, Mohichehra Muhammadiyeva, Gullola Umrqulova, Marjona Muhammadiyeva ustozdan doimo metodik yordam va maslahatlar olib, bilim va mahoratlarini oshirib kelishadi.

Farzandi Dildoraxon Muhammadiyeva ham shu maktabda ona tili va adabiyot fanidan o'quvchilarga dars berib kelmoqda.

— Onam bilan faxrlanaman, — deydi Dildoraxon. — Unga havas qilib o'qituvchi bo'ldim. Bugun ham havasim, onamdek bo'lishga intilishim zarracha bo'lsin ozaygan emas. U kabi o'quvchilarning sevimli muallimiga aylanish, qadr topish eng kata orzum.

So'zim so'ngida Erkin Vohidovning ustozlar haqida bitilgan quyidagi misralari yodimga tushdi:

*Shohiqiron yotar ustoz poyida,
Jomiyi pir tutgan Navoiy hazrat.
Ustoz buyuk degan buyuk qoida,
Bu qaytar dunyoda azaliy hikmat.
Aflotunga shogird edi Arastu,
Ul shogirdga shogird bo'ldi Iskandar.
Bu oltin silsila davomi mangu,
O'zi ustoz bo'lar ustoz ko'rganlar.*

Sohiba OCHILOVA,
Kitob tumanidagi
40-maktabning ijodiy-madaniy masalalar
bo'yicha targ'ibotchisi

SIFATLI TA'LIM – INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING HAL QILUVCHI OMILI



Tadbirkorlar va ishbilardonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi mamlakatimiz Prezidentligiga Shavkat Mirziyoyev nomzodini ko'rsatdi. Zero, partiya nuqtayi nazariga ko'ra Prezidentlikka eng munosib nomzod shu insondir. Shavkat Mirziyoyev boshchiligida hayotimiz yaxshi tomonga o'zgardi. Erkinroq, farovonroq yashay boshladik.

KEYINGI besh yil ichida yurt-doshlarimiz manfaatlariga xizmat qiluvchi ko'plab ijodiy o'zgarishlar yuz berdi. Garchi ana shunday salmoqli muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, nomzodimiz kamtarinlik bilan ularni tom ma'nodagi Yangi O'zbekiston barpo etish yo'lidagi dastlabki qadamlar, deb baholamoqda. Va erishilayotgan natijalardan aslo qoniqmaslikka, mavjud ahvolni haqqoniy, ishlarni esa tanqidiy baholashga, doim marrani baland olishga, boshlangan islohotlarni yanada jadalroq davom ettirishga da'vat qilmoqda. Ana shu chaqiriqlar mohiyati nomzodimiz saylovoldi dasturida ham aks etgan.

Xususan, nomzod dasturida sifatlil ta'limga inson kapitalini rivojlantirishning hal qiluvchi omili sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki bilimsiz, ilm-ma'rifatsiz hech qaysi sohada taraqqiyotga, o'sishga erishib bo'lmaydi. Quyida prezidentlikka ko'rsatilgan nomzod Shavkat Mirziyoyev saylovoldi dasturida ta'limga sifatlil oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan ayrim maqsad-vazifalarni e'tiboringizga havola etyapmiz.

“Birinchidan, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasi hozirgi 62 foizdan kamida 80 foizga yetkaziladi. Buning

uchun qo'shimcha ravishda 7 mingdan ziyod yangi bog'cha tashkil etiladi. Shuningdek, 2024-yil yakuniga qadar 6 yoshli bolalar maktabgacha tayyorlov tizimi bilan to'liq qamrab olinadi. Ana shu tadbirlar hisobidan kelgusi besh yilda tizimda 45 mingdan ortiq xotin-qizlar uchun qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. Bog'cha tizimi xodimlarining oylik maoshlari ham bosqichma-bosqich oshirib boriladi.

Ikkinchidan, maktab ta'limi tizimi uchun o'quv dasturlari va darsliklar ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ishlanib, 2026-yilga qadar amalda joriy etiladi.

O'qituvchilarning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash borasidagi ishlar davom ettiriladi.

Yurtimizda bolalar soni o'sib bora-yotganini inobatga olib, yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutadigan Maktablarni rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqiladi. Shu asosda kel-

erishishi uchun sa'y-harakatlarimizni kuchaytiramiz.

Shuningdek, davlat oliyogohlari bosqichma-bosqich mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilaydi. Ularning moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida ijtimoiy soliq stavkasi amaldagi 25 foizdan 12 foizga tushiriladi, bo'shagan mablag'lar ta'lim muassasalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Xususiy oliyogohlarda ta'lim olayotgan talabalarga ham 7 yillik ta'lim kreditini olish tartibi joriy etiladi.

Talabalarining yashash sharoitini yaxshilash uchun kelgusi besh yilda qariyb 100 ming o'rinli talabalar turar joylari barpo etiladi.

Oliy ta'limda sifat va raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida 2026-yilgacha xususiy oliyogohlari soni kamida 50 taga yetkaziladi.

Zamonaviy, erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlar uchun imkoniyat-

“ 2026-yilga qadar kamida 10 ta oliyogohimiz nufuzli xalqaro reytinglarga erishishi uchun sa'y-harakatlarimizni kuchaytiramiz.

gusi besh yilda qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish uchun maktablar rekonstruksiya qilinadi va yangidan barpo etiladi.

Uchinchidan, oliy ta'limga qamrov darajasini 50 foizga yetkazish bilan birga, asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirishga qaratiladi.

2026-yilga qadar kamida 10 ta oliyogohimiz nufuzli xalqaro reytinglarga

larni yanada kengaytirish maqsadida “El-yurt umidi” jamg'armasi orqali ularni nufuzli xorijiy oliyogohlardagi bakalavriat, magistratura va doktoranturaga yuborish ko'lamini 2 martaga oshiriladi.

To'rtinchidan, ilmiy kadrlar tayyorlash va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashiriladi.

Doktoranturaga qabul davlat buyurt-

masi hamda manfaatdor tashkilotlar mablag'lari hisobidan to'lov-grantlari asosida joriy etiladi.

Bulardan ko'zlangan yagona maqsadimiz – ta'limning barcha bosqichidagi muassasalarni – Uchinchi Renessansning 4 ta uzviy halqasiga, bog'cha tarbiyachisini, maktab muallimini, professor-o'qituvchilar va ilmiy ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg'onish davrining 4 ta tayanch ustuniga aylantirishdir.

Jismoniy yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Shu borada olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha har ikki yilda o'tkaziladigan umumrespublika sport o'yinlari – Milliy olimpiada tizimi joriy etiladi. 2024-yili Parijda bo'ladigan olimpiya va paralimpiya o'yinlarida munosib ishtirok etish uchun tegishli “yo'l xaritasi” qabul qilinadi.

Umuman, ta'lim-tarbiya va sport sohasida izchil davom ettiriladigan islohotlarimiz Yangi O'zbekiston buyuqkorlarini kamolga yetkazishga xizmat qiladi”.

Aziz saylovchilar, qadrli yurtdoshlar! Yuqorida bayon qilingan rejalar, maqsadlar shunchaki saylovoldi va dalari emas. Ularni amalga oshirish uchun mamlakatimizda barcha resurslar, imkoniyatlar mavjud. Nomzodimiz qat'iyati, insonparvarligi va boshqa fazilatlarini tufayli shu kungacha Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligiga xizmat qiluvchi mislsiz ishlar amalga oshirildi. Shubha yo'qki, kelgusida barcha sohalarda, jumladan, ta'lim tizimida ham yuksak natijalarga erishiladi. Pirovard maqsad esa yagona – yosh avlodimizning barkamol bo'lib voyaga yetishi, sifatlil va mukammal ta'lim olishini ta'minlash. Zero, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Shu bois sizni yuksalish va taraqqiyot uchun, har bir inson qadri uchun, Yangi O'zbekiston ravnaqi uchun Shavkat Miramonovich Mirziyoyev nomzodiga ovoz berishga chaqiramiz!

NOGIRONLIGI BO'LGANLAR UCHUN QAYG'URAMIZ

Ma'lumotlarga ko'ra, hozir dunyoda qariyb 1 milliard nafarga yaqin nogironligi bo'lgan shaxs bor. Mamlakatimizda esa 780 ming nafar nogironligi bor inson ro'yxatga olingan. Shulardan 350 ming nafari ishga layoqatli. Ammo jamiyatimizda ularning ehtiyojlari va muammolariga e'tiborni kuchaytirish zarur bo'lgan ko'pdan ko'p masalalar bor.

Joriy mexanizm manzarasiga nazar

Esingizda bo'lsa, o'tgan yili 15-oktabrda “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi yangi qonun imzolangan edi. Yaqinda, ya'ni shu yil 7-iyun kuni “Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun imzolandi. Shuningdek, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror qabul qilindi. Qaror bilan 2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi. 2021–2022-o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida shaharlarda hamda Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bitadan umumta'lim maktablarida, jami 42 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilindi. Ularning inklyuziv sinflariga 76 nafar o'quvchi qabul qilindi. Ushbu hujjatlarni O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning muhim huquqiy asosi, deyinimiz mumkin. Bu orqali nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini ta'minlash yanada kafolatlanmoqda. Imkoniyati cheklanganlarni jamiyatga to'liq ijtimoiy integratsiya bo'lish chorasini ko'rish va shart-sharoit yaratishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Sog'liqni saqlash tizimining yuqori malakali mutaxassislarini jalb etgan holda nogironligi bo'lgan shaxslar har yili ikki marta dispensarizatsiyadan o'tkaziladi. Sanatoriylarda rejali sog'lomlashtiriladi va ixtisoslashtirilgan stasionarlarda davolanadi. To'g'ri, e'tiborga arzigulik islohotlar olib borilyapti, nogironligi bor shaxslarni qo'llab-quvvatlashga davlat tomonidan alohida ahamiyat berilyap-

Inklyuziv ta'lim olish huquqi

Oxirgi paytda inklyuziv ta'lim tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda. Inklyuziv ta'lim nima degani o'zi? Bu maktabgacha, o'rta va oliy ta'limni o'zgartirish jarayoni bo'lib, barcha nogironligi bo'lgan farzandlarimiz undan foydalanishi, ta'limni ularning turli ehtiyojlariga moslashtirish mumkinligini ko'zda tutadi. Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno etadigan, barcha uchun teng muomalani ta'minlaydigan, lekin maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun zarur sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi. Haqiqatan, nogironligi bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. Tahlillarga ko'ra, agar maktablarda inklyuziv ta'lim bilan qamrab olish uchun sharoit yaratilsa, nogironligi bor 16 yoshgacha bolalarning 80 foizidan ortig'i bimalol maktabga bora oladi. Bu qanchadan-qancha bolalarning ko'ngliga yorug'lik olib kiradi, ular ham jamiyatning teng huquqli a'zosi ekanligini his qiladi, shu tariqa hayotga qarashi o'zgaradi, ishonchi mustahkamlanadi. Lekin ular ta'lim sifati kutilgandek yuqori samara bermaydi. Yaqinda OAVda Buyuk Britaniyaning Sasseks universiteti, Taraqqiyot tadqiqotlari instituti doktoranti Dilmurod Yusupovning shu masala yuzasidan fikrlari e'lon qilingan edi. Unda muallif O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirishga urg'u bergan. Xususan, yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi qonunda ilk marta inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritilgan, uni tashkil etish mexanizmi belgilangan bo'lishiga qaramay, hanuzgacha bunday tartib ishlab chiqilmaganiga e'tibor qaratgan.

Oliy ta'limda nogironligi bor shaxslar uchun sharoit bor(mi)?

BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga muvofiq,



nogironligi bor shaxslar uchun oqilona qulayliklarni ta'minlashni ularni kamsitish deb qabul qilinadi. Konstitutsiyamizda ham barcha uchun ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Milliy qonunchiligimizda ham nogironligi bo'lgan shaxslar uchun salohiyatlarini yuzaga chiqarishda teng huquqlar belgilangan. Maktabga qatnay olmaydigan imkoniyati cheklangan bolalarning uy sharoitida o'qitilishiga davlatimiz tomonidan alohida ahamiyat berilayotgan bo'lsa-da, joylardagi mutasaddilarning e'tiborsizligi oqibatida bu shaklda bilim berish jarayoni ham sifatlil tashkil etilmayapti. Boshlang'ich sharoitlarda yaxshi ta'lim berilmasa, bu keyingi bosqichdagi ta'lim sifatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Ma'lumki, oliy ta'lim dargohlariga kirish uchun nogironligi bor shaxslarga 2 foizlik kvota ajratilgan. Bu imtiyoz oliyogohda o'qishni xohlagan qanchadan-qancha yoshlar uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi, ularning hayotida, shubhasiz, tub burilish yasadi. Ammo, oliy ta'lim dargohlarida ular uchun kerakli sharoit mavjudmi? Asosiy masala shunda. Imtiyozdan foydalanib, institutga kirgan nogironligi bor yigit-qizlar darsga qatnashi uchun qiyinchiliklarga duch kelmaydimi, ishqilib? Ostonasiz kirish, zinapoyalar, panduslar, liftlar va boshqa qulayliklar mavjudligi hisobga olinganmi? “O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi qonunga ko'ra, barcha davlat muassasa va tashkilotlari nogironligi bor bo'lgan shaxslarning ijtimoiy infratuzilma, transport, aloqa vositalari va axborotdan foydalanishda teng imkoniyatlarni ta'minlashi kerak. Hattoki, ushbu talablar bajarilmagan holatlarda qonunda ma'muriy javobgarlik ko'zda tutilgan. Yana bir masala, eshitish qobiliyati cheklangan talabalar uchun ma'ruzalar vaqtda imo-ishora tilida tarjima bilan ta'minlash uchun qulayliklarning mavjud emasligida. Tasavvur qiling, kar va zaif eshituvchi talabalar surdo tarjimasiz darslarni qanday o'zlashtiradi? Ko'rish qobiliyati cheklangan talaba o'qituvchi doskada nima yozayotganini ko'masa, unda darsda nimani o'rganadi? Bu ularning ruhiyatiga ham ta'sir

etmaydi, deb hech kim kafolat bera olmaydi. Shunday qilib, mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarini nogironligi bor shaxslarga moslashtirish kechiktirib bo'lmaydigan masaladir.

“Biz siz uchun qayg'uramiz!”

Prezidentlikka nomzod Maqsuda Vorisova nogironligi bo'lgan shaxslar uchun huquq va manfaatlarini qat'iy himoya qilish tarafdori. Nomzodimiz nogironligi bo'lgan shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish kerak, degan taklifni ilgari surmoqda.

– Biz milliy qonunchilikni BMTning Nogironlar huquqlari bo'yicha konvensiyasi tamoyillari va me'yorlariga muvofiqlashtirish zarur, deb hisoblaymiz. Shuningdek, nogironlar jamiyatlariga davlat subsidiyalarini ajratish bo'yicha takliflarni olg'a suramiz. Bundan tashqari, nogironligi bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish, ularga ma'naviy-ma'rifiy sohada teng imkoniyatlarni ta'minlash kerak, deb hisoblayman. Maxsus adabiyotlarni, jumladan, ovoz jo'rligidagi Brayl alifbosi asosida ham chop etish va xarid qilish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarga imtiyozlar taqdim etish zarur, – deydi nomzod. Ko'sh, nogironligi va rivojlanishda nuqsanlari bo'lgan bolalar sifatlil ta'lim olishlari va keyinchalik munosib ish topishlari uchun ularga haqiqiy inklyuziv sharoitlarni qanday yaratish mumkin?

– Bizning fikrimizcha, bolalar bog'chalari va maktablar nogironlik aravachasida yurish, yaxshi ko'ra olmaydigan yoki eshita olmaydigan bolalar uchun qulay qilib rejallashtirilishi, panduslar qurish, liftlar, ogohlantiruvchi belgilar o'rnatish kabi arxitektura-qurilish ishlari belgilangan normativlar asosida bajarilishi kerak. Inklyuziv ta'limga moslashtirilgan ta'lim maskanlari tarbiyachi, o'qituvchilarga zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning ustama haqlarini oshirish masalasiga e'tibor qaratilishi lozim. Yana bir muhim vazifa, bu jamiyatni ijtimoiylashtirish, ya'ni, nogironligi bo'lgan bolalar va umuman nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan jamiyat munosabatini to'g'ri shakllantirishdir, – deydi nomzod Maqsuda Vorisova.

"Fasl tanlovi"

"Faslning eng yaxshi ijodkori"

Qaynoq faslning ham eng yaxshilari aniqlandi

"Maʼrifat"da yozning qaynoq haroratiga hamohang joʻshqinlik bilan ijod qilgan faslning eng yaxshi materiallari mualliflari aniqlandi. "Faslning eng yaxshi ijodkori" tanlovining (2021-yil, yoz oylari) nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar bilan tanishing. Har bir ijodiy ish hamisha tahririyat e'tiborida. Siz ham faollar safida bo'ling hamda kelgusi fasl g'olibiga aylaning!

T/r	Tanlov yoʻnalishi	Taklif etilayotgan maqola nomi(sanasi)	Muallif
Birinchi darajali			
1.	"Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola"	"Tekinga kafan bo'lsa o'lmoq kerakmi?" (14-iyul)	Nusratulla Jumaxo'ja
2.	"Pedagog-muallifning dolzarb materiali"	"Qachon savodxonlikka erishamiz?!" (20-iyul)	Gavhar Usmonova, Narpay tumanidagi 64-maktab o'qituvchisi
3.	"Eng yaxshi ocherk yoki esse"	"Bolalik hayitlari" (2-iyun)	Guljahon Mardonova
4.	"Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy taklif"	"Bizga maktab-internatlar kerak" (20-iyul)	Sanobar Xo'jamurodova, Amudaryo tumanidagi 40-maktab direktori
Ikkinchi darajali			
5.	"Voqelikka munosib sharh yoki munosabat"	"OTMlarga kirish imtiyozlari Konstitutsiyaga muvofiqmi?" (7-iyul)	Shahriyor Abdubog'iyev, Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi
6.	"Mazmunli intervyu, suhbat"	"Targ'ibotchimani — maktabga hurmat, maqtoq, shuhrat talabidan bormadim" (16-iyun)	Niginabonu Shukurova
7.	"Sermazmun sahifa"	"Milliy o'quv dasturi: tahlil va takliflar yoxud yomg'irdan qochib do'lga tutildikmi?" (28-iyul)	Zilola Madatova
8.	"Samarali metodik material"	"Muammoli ta'lim — ijodiy salohiyat tarbiyachisi yoxud "T-T-T-T" texnologiyasi" (28-iyul)	Tursunoy Yo'ldosheva, Shofirkon tumanidagi 4-maktab o'qituvchisi
9.	"O'qishli badiiy asar"	"Orzuning uyg'onishi" (11-avgust)	Dilora Xoliqova, Qiziltepa tumanidagi 41-maktab o'qituvchisi
Uchinchi darajali			
10.	"Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material"	"Maqola chiqargan o'qituvchining ish tajribasi ommalashgan hisoblanadimi?" (2-iyun)	Ulug'bek Po'latov
11.	"Eng yaxshi tarjima materiali"	"Bahongizni o'zgartirmang, men esa orzularimni" (25-avgust)	Zamira Yusupova
12.	"Talaba-jurnalistning yorqin publitsistik ishi"	"O'quvchilar emas, kitoblar "challasavod!" (9-iyun)	Xolida Musurmonova, O'zJOKU talabasi

Yoshlar biron-bir xurmacha qilig'i bilan omma e'tiboriga tushib qolsa, muhokamalar boshlanadi. "Yoshlar aynib ketdi... Yoshlar aynib ketdi...". Abdulla Qahhorning "O'jar" hikoyasida Zargarov degan personaj bor. Havoyi, laqma bir kimsa. "Men yoshligimda shunday tarbiya ko'rgan bo'lsam, hozir yerda turib, oyda chorvachilik qilardim", deb nuqul farzandidan noliydi. Katta avlod vakillari Zargarovga o'xshab yakkash, o'z fikrini ma'qullab yoshlardan domangir bo'lmasin. Shu yerda Erkin Komilovning bir gapi esga tushadi: "Yoshlar muqallid keladi. Kattalarga taassub qiladi. Ular ustozlarimizdan qolgan mo'tabar tuzuklarga bepisandmi, aksariyati adabiyotni, san'atni anglamay ma'naviyatsizlik, madaniyatsizlik, axloqsizlik sari ketyaptimi? Buning uchun yoshlarning ayblamaslik kerak. Ba'zi kattalar ham "oppoq" emasdir".

"Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan beo'xshov qiliqlarga ma'naviyatsizlik sabab deyish oson. Ammo "baobab daraxti" mevalari qayerda pishib yetilgani haqida hech qanday gap bo'lmaydi. Ularni kim va qanday tayyorlamoqda? Nega ular, avvaliga qilg'iliqni qilib, keyin kechirim so'rashadi? Bu haqda o'ylamaslikning iloji yo'q edi. Chunki so'nggi vaqtlarda tez-tez takrorlanayotgan "sho'xlik"lar odamning me'dasiga tega boshladi. Dastlab, Amir Temur bilan o'ynashgan bo'lsa, endi hazrat Navoiyni masxara qilishdi. Keyinroq hammamizni. To'g'ri, hammasi qonun oldida javob beradi-yu, lokigin ildizi qurimaydi-da", deya bir tengdoshimiz yuqoridagi fikrlarimizga o'z munosabatini bildirgan ekan. Ushbu mulohazalarda ham jon bor: Axir, bu tarbiya! Ha, bizning avlodni shunday tarbiya qilishgan. Hamma narsa pul bilan o'lchanishi-yu, "diplom" degan bir parcha qog'ozni ham pul hal qilishini uqtirishgan. Endi esa "Yoshlar aynib ketdi..." deb, qutuladi. Endi har bir loqaydligimiz badalini keyingi avlod to'laydi. Biz so'kamiz, ular kechirim so'raydi. Biz kechiramiz, ular yana xato qiladi. Ammo qachongacha?

Voynichning "So'na" degan romanini o'qiganimda xuddi bizning jamiyatda kuzatilayotgan ahvolning guvohi bo'lgandim. Sizga ham eslatib o'tgim keldi. Aslida, bosh qahramon Artur jabrdiyda bo'lsa-da, uni butun jamiyat qoralaydi. Artur katolik dini ruhoniysi, diniy seminariyaning rektori Montanellining o'g'li. Ammo Arturning bundan xabari yo'q. U sirlardan xabar top-gach, o'zga yerlarga bosh olib ketadi-yu, azob-uqubatlari ta'sirida o'zga odamga aylanib ortga qaytadi. Keling, endi shu yeridan boshlab, Artur bizning jamiyatga tashlaymiz. U "beboshlik"lari uchun har kuni ta'qib etilib, oxiri o'lim jazosiga hukm qilinadi.

Uning shunday bo'lib ketishiga sabab bo'lgan ota-chi (tarbiyalagan avlod-chi)? Shunchaki tomoshabin bo'lib turadi. Vijdon qiynaladi, biroq aytolmaydi...

Ahmoqliklarni oqlamoqchi emasman. Faqat hovlimizda ko'kargan begona o'tning urug'i qayerdan, qanday kelib qolganini tushuntirmoqchiman. Ulug' rus adibi va mutafakkiri Lev Tolstoy "Biz kulfat deb atagan narsalarning hammasi, aslida, o'z xatolarimizdir" degan edi. Agar shu gap rost bo'lsa, bagungi "soqqa topish" yo'lida qilayotgan "biznesimiz" qachondir boshimizga paydarpay yog'iladigan balolarning "mevasi" bo'lib qolmasmikan?! Ha, mayli. Ma'naviyatsizlikni qo'ya turaylik. Mavzudan chetlashmagan holda yana bir mulohazaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

"Daydi qizning daftari" hoshiyasidagi bitiklar

Yaqinda "Oltin voha" telegram kanalida adminlarga yo'llangan murojaatga ko'zim tushib qoldi. Qo'yilgan

“Chivinlar o'ldirilishi emas, botqoq quritilishi kerak” yoxud “Daydi qizning daftari” hoshiyasidagi bitiklar”

“post” ostida qizg'in mulohazalar kechmoqda. Ko'tarilgan mavzu va bildirilayotgan fikrlar ham bir-biridan qiziq va asosli...

“Assalomu alaykum OAV ijodkorlari!

Ushbu murojatimni nazardan chetda qoldirmaysizlar degan umiddaman. Televideniye orqali efigra uzatilayotgan “Daydi qizning daftari” serialiga nogahon ko'zim tushdi. Filmda bir yigit ham onasi, ham qizi bilan bir uyda ishqiy munosabat qilib yuribdi. Kamiga yigit qizga sovg'a berdi va qizni ko'targancha yotoqqa...

Aytmoqchi bo'lganim bunday serialdan qanday ma'no va qanday ma'naviy ozuqa bor?

Buni ko'rgan yosh avlodning ongi qanday fikrlar bilan shakllanadi? TV ijodkorlaridan ushbu serialni qayta ko'rib chiqib, ba'zi sahnalarini efigra uzatmasligingizni so'rayman.

Siz-chi, qadrdonim, siz nima deysiz?”

Ushbu serial biz uchun emas. Mentalitetimizga ham umuman to'g'ri kelmaydi. Ayniqsa, serial juda “ko'pirtirib” yuborilgan. Aksariyat, aktyorlar “koridorda” o'qishgona o'xshaydi...

“Ma'naviy ozuqa bermayapti deb, xorij seriallarini yomonlashdi. Endi milliy serialga ham shu gap. Bu asarda hayotda bor bo'lgan axloqsizlik, vijdonisizlik, orsizlik yoritilgan. Har qanday badiiy asarning vazifasi oq bilan qora ni ajratib ko'rsatish. Kitobxon ajrata bilsin, yaxshi nima-yu yomon nima? Kitob chiqqanda yoshlar orasida qo'lma-qo'l bo'lib o'qilgan edi. Endi televideniyege kelsak, oilaviy ko'rib bo'lmaydigan filmlarni ko'rmang, o'chirib qo'ying. Bolalar internetda bundan battarlarini ko'rishyapti. Aktyorda nima ayb? Shundog'am o'zini hurmat qilgan aktyor o'ynamayapti. Hozir shu serialni yomonlagan insonlar farzandlariga “O'tkan kunlar”ni qo'yib bersa, bola ko'ramikan?! Hamma narsani tanqid qilavermay, xulosa chiqarishini o'rganishimiz kerak... Hamma gap OTA-ONAda qolgan, deb o'ylayman”.

“Juda sharmanda! Qizning sigaret chekishini qarang. Kinoni omma oldiga chiqarishdan oldin maxsus komissiya tekshirmaydimi? O'zlarining ham televizor ko'radigan bolalari, nevaralari bordir?!”

“Solih Qahorning 2001-yilda yozilgan bu asari — hayotimizning qorong'u ko'chalari haqida. O'sha qorong'u ko'chalari chiroqlar qo'yilib, obodonlashtirildi. Ko'chalarda quchoqlashib yurgan yoshlar, bir-biriga to'ymayotgan “sevisganlar”ni ko'raverib ko'zimiz o'rgandi. Ushbu holatni serialda ko'rib, farzandlarimiz tarbiyasi esimizga tushib qoldi. Go'yoki, g'ururimiz uyg'ondi. Ayollarimizning mardikor bozorida o'tirganini ko'rib, indamay o'tib ketamiz-u, seriallarni muhokama qilishga qanday botinyapmiz. Ayollarni ish bilan ta'minlash kerak deydiqan mas'ullar, avvalo, o'sha ayollarning erlarini ish bilan ta'minlash kerakligini bilmaydimi? Erkaklar ish bilan band bo'lsa, yaxshi maosh olsa, ro'zg'ori bot bo'lsa, ayollarimiz ham ona ekanliklarini esdan chiqarmaydi. Uydida o'tirib, farzandini tarbiya qiladi. Seriallar — yuzimizga tutilgan oyna. Oynaga qarab xulosa qilish esa o'zimizdan...”

Serial haqidagi fikrlar asosli, yo'qmi deya uning bir nechta qismini ko'rdim. Dahshat! Aslida, kinoda qiziqarliq ma'naviy foydalilik tushunchasidan keyinroq kelsa va hatto ancha orqada tursa ham ziyon emas. Estrada yoki eng zamonaviy “rep” namunalari ishqiboz muxlis mumtoz musiqani eshitmasa, bu san'atdan voz kechilmaydi-ku?! Bu iste'molchilik kayfiyatini kuchaytiradi va oxir-oqibat insonlik sha'n-sharfiga nomunosib harakatlar eshigini ochadi, insoniyatni ruhiy tanazzul sari boshlaydi.

“Ma'naviy kurashda yutqazyapmizmi?”

Savolni dabrurustdan bunday qo'yishimning sababi bor. Bu haqda keyingi o'rinlarda to'xtalam.

“Daydi qizning daftari...” serialini Youtube tarmog'ida qancha odam kuzatayotganiga qiziqdim. Serialning bir qismini 503 ming 915 nafar odam kuzatarkan (ko'rsatkich o'sishda davom etmoqda). 60 ming 900 marta “yoqdi”

belgisi bosilgan. Endi serialni tomosha qilayotganlarning qoldirgan izohiga bir e'tibor bering-a (“kommentlar” hech qanday o'zgarishsiz havola etilyapti):

“Shu seriyalni ko'rayotganlar sog' bo'lishsin”, “Kinoni vaqtini sal bo'sayam uzunroq qo'yinglar. Hech kino ko'rganday bo'mayapmiz. Shu serialni erinmasdan ko'rayotganlar umridan baraka topsin!”, “Yaxshi asardan zo'r kino chiqadi rejissorlar iltimos, qayna-kelinni olavermasdan shunaqa qarzlarni olilar layk bizdan”, “Tahmina rolini o'ynagan qiz juda zo'r aktirisa ekan yig'lab ko'rdim...”

Hisob-kitobimga ko'ra, 60 900 nafar kuzatuvchining atigi 6 foizigina “9 yosh qizim kinoni ko'rib, johisha nima degani, dedi. Uyalib ketdim, bu kinoni boshqa ko'rmimiz TVda umuman oilaviy ko'rib bo'lmaydi yoshlarni ongi buzilyapti”, “Nima bu, shuni kino deb bo'ladimi, shu kinoni olgan odamlar o'zlari bemalol oilaviy ko'rib o'tirish oladimi, farzandlari, qizlari bilan? Qani iffat, qani nomus? Kinolarda ma'no qomapti. O'zbeklarimiz ham iffat pardasini yechiptiye, tovba”... kabi munosabatlar bildirgan.

Ziyoli, ma'naviyatli, oq bilan qorani ajrata bilganlar kinoni yoqlab chiqmasligi aniq. Keyingi qismlarga ehtiyojmand, kutishga sabri chidamayotganlar haqida qanday xulosa qilish mumkin? Jamiyatimizdagi qaysi qatlam ko'proq yul ko'bsayapti? Xo'sh, biz ma'naviy kurashda yutyapmizmi yoki yutqazyapmizmi?

Omnia ongini boshqarishda esa turli usullar: siyosiy-mafkuraviy mazmundagi axborot xuruj, reklama, tashviqot, tok-shoular, estrada va sport yulduzlarining xuql-otvori hamda ular haqidagi mish-mishlarni zo'r berib tarqatish, targ'ib qilish, zo'ravonlik, urush, fahsh va boshqa axloqsizliklarni ko'rsatuvchi filmlar, elektron o'yinlar, noan'anaviy tanlovlar va ommaviy madaniyatning turli mahsulotlari qo'l kelmoqda. Ular insonda xudbinlik, nafs mayllari, iste'molchilik va boshqa biologik instinktlarni ko'zga aydi, nosog'lom raqobat va kuchga sajda qilishni avj oldiradi. Oilasida yaxshi tarbiya ko'rgan, nima yaxshi-yu nima yomonligini ajrata oladigan yoshlar bunday kinolarni ko'rmasligi mumkin. Bunga vaqti ham bo'lmaydi. Ammo ota-onasi kun davomida ishda yoki biron ish bilan band bo'lgan ota-onalarning farzandlari-chi? Ularga bu kinoni ko'rma, yoshingga to'g'ri kelmaydi deb kim aytadi? Xo'sh, buyog'iga qaysi yo'ldan boramiz? Shekspir qahramoni aytmoqchi, “Yo hayot, yo mamot: masala shundoq!”. Bu savolga javob izlab uzoqqa borish shart emas. Prezidentimiz O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida javobni aytgandi:

“Ma'naviyat tijoratga aylanmasligi kerak!”

“...Yurtimizdagi bugungi ijodiy muhitni kuzatsak, u qandaydir turg'unlikka tushib, bir joyda deysinib turganday, ko'pchilik ijodkorlarimiz o'z tashvish va muammolari bilan o'ralashib qolganday taassurot qoldiradi. Holbuki, madaniyat va san'at arboblari hamisha jamiyatning eng oldingi saflariga bo'lishi, o'z asarlari, faol grajdanlik pozitsiyasi bilan ezgu maqsad va marralar sari boshlashi, ilhomlantirishi kerak emasmi?!”

Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan — G'arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashmiz. Bu balo, afsuski, o'zimizdan, o'z oramizdan ham chiqishi mumkin... Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba'zi klip va kinolarni, efigra berilayotgan qo'shiq va raqslarni kuzatib, sog'lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy.

O'zbekistonda adabiyot va san'at, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat va ma'rifat biznesga aylanmasligi shart va biz bunga yo'l qo'ymaymiz. Kimda-kim bu sohalarga faqat pul ishlash, faqat iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida kirayotgan bo'lsa, ular, marhamat, tadbirkorlik, biznesning boshqa turlari bilan shug'ullan-

sin... Lekin ijodiy ishlarga aralashib, o'zini ham, san'at degan muqaddas tushunchani ham obro'siz qilmasin. Buni hech kim, hech qachon unutishga haqqi yo'q”. Yurtboshimiz ma'naviyat, madaniyat, kitobxonlikni ommalashtirish kabi masalalarga e'tiborni kuchaytirayotgan vaqtda bilganimizdan qolmasak...

Gapning indallosi, AQSHlik tadqiqotchi Maykneyl aytganidek, omnia ongini manipulyatsiya qilishda televideniye kabi tub burilish yasagan vosita yo'qdir. Televideniye haqiqat va yolg'on chegarasini yo'qqa chiqaradi. Negaki, televizor tomosha qilayotgan odam ko'pincha psixologik himoya signallarini o'chirgan bo'ladi. Shuning uchun, efigra uzatilayotgan film va seriallar bir “elakdan” o'tkazilsa, bizningcha maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni yangi O'zbekistonni bunyod etayotgan xalqqa qay biri muhim: Navoiy bobomiz aytmoqchi, hammomga kirdingmi kirding qabilida ish tutmoqmi yoki poklanib murod hosil etmoqmi? Tuyg'ularni qitqilaydigan oldi-qochdi seriallarni ko'rasiz, vaqtiniz go'yo xush-xursand o'tadi... Asl san'at esa ko'ngil va tafakkurni sarosar etadi, o'ylatadi, yig'latadi, xotiraga muhrlanadi, ma'naviy bisotga aylanadi.

Mazkur mulohazalar mushitariyda “Ushbu kino haqidagi gaplar kinoni “cho'rniy pear” qilishdan bo'lak hech narsa emas” qabilidagi e'tiroz uyg'otishi mumkin. Yo'q, maqsad targ'ib qilish emas, balki mulohaza yuritish. Chunki bugun yengil, “suyuq” mavzulardagi kitoblarni o'qigan, kinolarni ko'rgan yoshlarni ertaga Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriyalar mulotolaisiga qaytarish qiyin bo'ladi. Bu esa bizning yo'l qo'yayotgan eng katta xatolarimizdan biri bo'lishi mumkin... Ushbu maqolamizga “Daydi qizning daftari” serialini efigra uzatishga ruxsat bergan, sahnalashtirgan produserlarimiz qanday munosabat bildirar ekan?!”

Yana bir gap, biroqning anghivonasini o'margan odam qonun oldida javob beradi. Taassufki, vaqt o'g'irlarining mushugini birov pishitmaydi. Nima uchun ma'naviyatsizlik, axloqsizlikka “ochiqchasiga targ'ib qilayotgan”larga qonunan chora ko'rilmaydi? Televideniye, OAV — bizing yuzimiz deymiz. Ammo yuzimizda bugun nimalar aks etyapti?

Gap shu orada aylanib-aylanib ma'naviyatga borib taqalarkan, unutmaylikki, bugun ma'naviyatsizlik va axloqsizlikni turli ko'rinishda targ'ib qilaversak, ma'naviy kurashda yengilamiz. Rahmon Qo'chqor aytganidek, “Ma'naviy ildizini bilmagan odam o'zini bilmaydi, o'zini bilmagan kishi zamonini tanimaydi. Zamonini bilmagan kimsa Vatanga faqat makon deb qaraydi va unga befarq bo'ladi. Vatanga va millatga befarqlik esa manqurtlikning nishonasidir”. Bir kitobda o'qiganim bor: Odamzod yaratilishida uning tabiatiga o'rnatilgan fazilat va qusurlar zamonlar o'tishi bilan o'z tusini har qancha tovlantirib borgan bo'lmasin, mazmunan hamda mohiyatan katta o'zgarishga, evrilishga uchragan emas. Ya'ni ibtidoda inson bolasiga yoqqan narsa hozir ham yoqadi, o'shanda yuragiga botgan narsa hozir ham azoblaydi. Yanada jo'nroq ifoda etadigan bo'lsak, hozir ham o'g'irlik qarovsiz tuxumni o'marishdan, xiyonat esa qo'shinning xotini qiz ko'rinishidan boshlanadi. Shuning uchun “Zamon o'zgarayapti”, “Zamon shuni talab qilyapti” deya zamonni aylash qabilidagi gaplar mutlaq o'rinsiz...

So'ngso'z

Oxirgi vaqt kino-yu seriallar haqida juda ko'p yozyapmiz. Ammo natijani sezmayapmiz, yozganlarimizga biron-bir mutasaddi fikr ham bildirmayapti. Bundan yozganlarimiz “egasini izlab” gazeta sahifalarida qolib ketyapti degan xulosa chiqaramizmi?

Yoshlarning ma'naviyatiga, madaniyatiga, buguniga, ertaniga, kelajagiga hamda Yangi O'zbekistonni yoshlar bilan quramiz tamoyili asosida kelajakka ishonch bilan ildamlayotgan vaziyatda yo'limizga to'g'anoq bo'layotgan har qanday illat atrofidagi “chivnlarni o'ldirishimiz emas, botqoqni butunlay quritishimiz kerak”. Shundagina ko'zlagan maqsadlarimizga erishamiz.

Murodjon RAHMATOV

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 1- va 2-varianti tahlili

ONA TILI

1. Oxirgi bo'g'ini i ga moyil aytiladigan so'zni belgilang.

- A) direktor B) konsert C) okean D) taassurot

Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan talaffuz va imlo me'yorlari bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

A javobda berilgan **direktor** so'zining oxirgi bo'g'ini i ga moyil aytiladi, yozuvda o yoziladi; B javobdagi **konsert** so'zi birinchi bo'g'ini a ga moyil aytiladi, yozuvda o yoziladi. C javobda ham **okean** so'zidagi e tovushi i ga moyil aytiladi, ammo bu ikkinchi bo'g'inda bo'lganligi uchun javob tariqasida belgilanmaydi; D javobda berilgan **taassurot** so'zidagi qo'sh unli va qo'sh undosh tovushlar talaffuzda qisqaradi: tasurot.

Javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. 5-sinf ona tili darsligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2020.

2. O'tga oid qaysi so'zda til o'rta undoshi ishtirok etgan?

- A) yashil B) maysa C) yetti D) maktab

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan so'z turkumlari va og'zaki nutqning tovush tizimi haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi. Mazkur topshiriqning A javobida berilgan **yashil** so'zi sifat so'z turkumiga oid; B javobdagi **maysa** so'zidagi m - lab undoshi, y - til o'rta undoshi, s - til oldi undoshi hisoblanadi. C javobda berilgan **yetti** so'zi son so'z turkumiga oid; D javobdagi **maktab** so'zidagi undoshlar hosil bo'lish o'miga ko'ra, lab undoshlari (m, b) va til oldi (t) va til orqa (k) undoshlari sanaladi.

Javob: B.

Qaysi nutq a'zosi ishtirok etishiga ko'ra nutq tovushlari: lab (b, p, m, v, f), til oldi (t, l, s, z, d, sh, ch, j, dj, n, r), til o'rta (y), til orqa (g, k, ng), chuqur til orqa (q, g', x) tovushlari va bo'g'iz (h) tovushi singari guruhlarga bo'linadi.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. 5-sinf ona tili darsligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2020.

3. Quyidagi qaysi ta'rif so'z birikmasiga xos emas?

- A) So'zlamning biri ikkinchisiga ergashishi, ya'ni tobelanishi zarur.
B) Qo'shimcha va yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bog'lashi kerak.
C) So'z birikmasida ikki so'z bir-biriga o'zaro teng bo'g'lanadi.
D) So'zlar ma'no jihatdan mos bo'lishi kerak.

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan so'z birikmasi va unga oid bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

So'z birikmasi bo'lish uchun:

- 1) kamida ikkita mustaqil so'z bo'lishi lozim;
2) bu so'zlar ma'no jihatdan mos bo'lishi kerak;
3) so'zlamning biri ikkinchisiga ergashishi, ya'ni tobelanishi zarur;

4. Qo'l qo'yimoq, xulosaga kelmoq, qarshi chiqmoq, ovoz bermoq, qo'l ko'tarmoq kabi iboralar faol ishtirok etadigan nutq uslubini aniqlang.

- A) rasmiy B) ilmiy C) publitsistik D) badiiy

Ushbu test topshirig'ini bajarishda abituriyentlardan nutq uslublari haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi. Turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar yoziladigan uslub rasmiy uslub. Shunga ko'ra, topshiriqdagi **qo'l qo'yimoq, xulosaga kelmoq, qarshi chiqmoq, ovoz bermoq, qo'l ko'tarmoq** kabi iboralar rasmiy uslubda qo'llaniladi.

Javob: A.

Manba: N.M.Mahmudov va boshqalar. 10-sinf ona tili

darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent - 2017.

5. Qo'shning tinch // sen tinch. Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gapdagi // belgisi o'rniga qaysi tinch belgisi qo'yiladi?

- A) nuqtali vergul B) ikki nuqta C) vergul D) tire

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan qo'shma gap va uning turlari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish, zidlash, shart kabi munosabatlar ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi. **Qo'shning tinch // sen tinch** maqolida shart ma'nosi ifodalanganligi sababli sodda gaplar orasiga tire qo'yiladi.

Javob: D.

Manba: N. M. Mahmudov va boshqalar. 9-sinf ona tili darsligi. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent - 2019.

Dildor NURMUHAMMEDOVA, Termiz shahridagi 23-maktab o'qituvchisi


MATEMATIKA

1. -6,3 dan katta, 5,4 dan kichik butun sonlar nechta?


- A) 11 ta B) 12 ta C) 10 ta D) 13 ta

Yechilishi: Natural sonlar, ularga qarama-qarshi sonlar va noldan iborat sonlar to'plami butun sonlar deyiladi. Sonlar nurida -6,3 dan katta ilk butun son bu -6, 5,4 dan kichik ilk butun son bu 5. Demak -6,3 dan katta, 5,4 dan kichik -6,-5,-4,-3,-2,-1,0,1,2,3,4,5 - jami 12 butun son bor.

Javob: B.



2. Siniq chiziq shu qonuniyat bilan davom etmoqda, 40-41-42-43 bo'g'inlar quyidagilardan qaysi biri?



- A) B) C) D)

Yechilishi: Agar siniq chiziqdagi qonuniyatga e'tibor beradigan bo'lsak, har oltita bo'g'indan keyin qonuniyat takrorlanib bormoqda.

Demak 1-,7-,13-,19-,25-,31-,37- va 43- bo'g'inlar bir xil boshlanishga ega. Demak , 40-41-42-43 bo'g'inlar

xuddi 4-5-6-7 bo'g'inlar bilan bir xil ko'rinishga ega.

Javob: C.

3. A, B, C, D, E, F larning har biri noldan farqli raqamlar bo'lsa, shu raqamlardan tuzilgan ikki xonali sonlar yig'indisi: $AB+BA+CD+DC+EF+FE=231$ ga teng bo'lsa $A+B+C+D+E+F$ ni toping.

- A) 11 B) 21 C) 23 D) 31

Yechilishi: Agar ikki xonali son \overline{ab} ko'rinishda

bo'lsa uni $\overline{ab} = 10a+b$ ko'rinishda yozish mumkin. Demak:

$$AB+BA+CD+DC+EF+FE=231 \text{ ni bunday yozib olish mumkin bo'ladi:}$$

$$10A+B+10B+A+10C+D+10D+C+10E+F+10F+E=231$$

Bundan: $11A+11B+11C+11D+11E+11F=231$

Ya'ni: $A+B+C+D+E+F=231:11$ $A+B+C+D+E+F=21$

Javob: B.

4. 5 ta ot 3 kunda 60 kg yem yeydi. 7 ta shunday ot uchun 8 kunga qancha yem g'amlash kerak?

- A) 220 B) 120
C) 240 D) 274

Yechilishi: Bu misolni keling "Beruniy usuli"dan foydalanib bajarsak.

Beruniy usuliga ko'ra:

$$\frac{5}{7} \cdot \frac{3}{8} = \frac{60}{x}$$

$$5x = 56 \cdot 60$$

$$x = \frac{56 \cdot 60}{5}$$

$$x = 56 \cdot 4$$

$$x = 224$$

$$\begin{array}{r} 57 \\ 38 \\ \hline 60 \end{array} x$$

Javob: D.

5. $2.125^{35} \cdot 64^{17}$ son necha xonali son?

- A) 104 B) 105 C) 106 D) 35

Yechilishi: Sonni tub sonlar ko'paytmasi ko'rinishida yozib oladigan bo'lsak quyidagi ko'rinishga keladi:

$$2.125^{35} \cdot 64^{17} = 2 \cdot (5^7)^{35} \cdot (2^6)^{17} = 2 \cdot 5^{245} \cdot 2^{102} = 2^{247} \cdot 5^{245} = 25 \cdot 10^{245}$$

Bundan ko'rinadiki, 25 sonidan keyin 103 ta nol bor.

Demak, sonimiz 105 xonali son.

Javob: B.

Manba: M.A.Mirzaahmedov, A.A.Rahimqoriyev, Sh.N.Ismailov, M.A.To'xtaxo'jayeva. Matematika, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6-sinfi uchun darsliklar. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2017.

Keyingi sonda "Ratsional sonlar va ular ustida amallar" mavzulari bo'yicha testlar varianti beriladi, bunda testlar 5-6-sinf materiallari bo'yicha tuziladi. Shu mavzularni chuqurroq o'rganishga harakat qiling!

Hamza XUDOYBERDIYEV, G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

1. Shohobod kanalini qurdirgan Xiva xonini aniqlang.

- A) Abulg'oziy Bahodirxon B) Olloqulixon
C) Eltuzarxon D) Anushaxon

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davriga oid. Abulg'oziy Bahodirxonning o'g'li Anushaxon davrida Yangi Urganch yaqinida Shohobod nomi berilgan katta kanal qazilgan. Yangi Urganch shahri esa Abulg'oziy Bahodirxon davrida bunyod etilgan edi.

Javob: D.

Manba: U.Jo'rayev, Q.Usmonov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2019(96-bet).

2. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonning qaysi shahrida metallurgiya zavodi bunyod etilgan?

- A) Bekobod B) Navoiy
C) Qo'qon D) Buxoro

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 1- va 2-varianti tahlili

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining 1917-1991-yillar davriga oid. 1944-yil mart oyida Bekobod shahrida O'rtasiyoda dastlabki zamonaviy metallurgiya kombinati - O'zbekiston metallurgiya zavodining birinchi navbati ishga tushirilgan.

Javob: A.

Manba: Q.Rajabov, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 10-sinf darsligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent-2017(92-bet).

3. Nechanchi yilda Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan?

- A) 1881-yilda B) 1867-yilda
- C) 1875-yilda D) 1856-yilda

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarigacha bo'lgan davriga oid. 1867-yilda bosib olingan hududlarni o'z ichiga

oluvchi Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi.

Javob: B.

Manba: S.Tillaboyev, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2019 (27-bet).

4. Bugungi kunda O'zbekistonda nechta milliy-madaniy markazlar millatlararo totuvlik g'oyasini hayotga tatbiq etmoqda?

- A) 193 ta B) 95 ta
- C) 42 ta D) 138 ta

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining mustaqillik davriga oid. Bugungi kunda O'zbekistonda 138 ta milliy-madaniy markaz millatlararo totuvlik g'oyasini hayotga tatbiq etmoqda.

Javob: D.

Manba: N.Jo'rayev, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 11-sinf darsligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2018(61-bet).

5. Xorazmda X asr oxirlarida hukimiyatga kelgan sulola nomini aniqlang.

- A) afrig'iylar B) ma'muniylar
- C) anushteginiylar D) arabshohiylar

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining o'rtasiyoda davriga oid. 995-yilda Gurganch miri Ma'mun ibn Muhammad Kat shahrini ishg'ol qilib, Xorazmning ikkala qismini birlashtirdi va Xorazmshoh unvoniga sazovor bo'ldi. Shu tariqa afrig'iylar sulolasi barham topib, ma'muniylar hukmronligi boshlandi.

Javob: B.

Manba: A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2017(90-bet).

Jalol BOLTAYEV, Urganch davlat universiteti magistranti


Taqriz

Zamonaviy pedagogika va notiqlik san'atining noyob namunasi

Talim va tarbiyaga jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Negaki, talim va tarbiyasiz ma'lum bir yutuqqa erishish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish mushkul. Har qanday talim-tarbiya asosida esa til, nutq, imlo va savodxonlik masalalari turadi.

Ayni shu jarayonda o'qituvchi-muallimning o'rni beqiyos. Bu haqda ko'p va xo'b yozilgan. Lekin davrlar o'tishi bilan talim berishning usul va vositalari o'zgarib boradi, tarbiyaning yangi-chi talqinlari yuzaga keladi. Izlanuvchan, mohir pedagoglarimiz yosh avlod qalbini egallaydigan, ularga ma'naviy oziq beradigan yangi, innovatsion metodlarni ishlab chiqadilar. Taniqli adabiyotshunos olim, mahoratli notiq, betakror so'z ustasi Rahimboy Jumaniyozov ham bu borada o'ziga xos asarlar yaratgan shaxslardan biri. Chunki uning "Eski o'zbek yozuvi", "Xalq ijodi - haq ijod", "Turkiy savod", "Nutqiy mahorat", "Muomala madaniyati", "Siz notiq bo'lmoqchimisiz?" kabi o'nlab kitoblari allaqachon xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanib ulgurgan, minglab odamlarni savod sari boshlagan.

Yaqinda R.Jumaniyozovning "Pedagogik mahorat va kommunikativ kompetentlik" nomli o'quv qo'llanmasi nashrdan chiqdi (Toshkent: Yangi kitob MCHJ, 2021, 288 b.). Mazkur kitobda ta'lim-tarbiya, zamonaviy pedagogika, notiqlik san'atining dolzarb masalalari o'zaro bog'liq holda yoritib berilgan. To'g'ri, pedagogik mahorat masalalari bo'yicha bir qator kitoblar: darslik va o'quv qo'llanmalar, uslubiy tavsiyanomalar yaratilgan. Biroq ushbu o'quv qo'llanmada pedagogik mahorat va kommunikativ kompetentlik muammolari o'qituvchining notiqlik mahorati misolida ochib berilgan. Muallif o'z bilimi, tajribasi va



pedagogik mahoratidan kelib chiqqan holda pedagogik jarayondagi har bir hodisaga o'ziga xos tarzda ijodiy-kreativ yondashgan. Pedagog ishining samarasi, asosan, uning nutqi bilan bog'liqligi ishonarli dalillar bilan ko'rsatib berilgan. Qo'llanmaning tuzilishi ham o'ziga xos. Unda pedagogik mahorat, aniqrog'i, notiqlik san'ati qadimgi davrlardan hozirgi kunga qadar qanday bosqichlardan o'tgani, shaxs tarbiyasida notiqlik san'atining o'rni va o'qituvchining nutqiy mahorati izchil ochib berilgan. Masalan, pedagogik mahoratning muhim omillari haqida, muallif shunday yozadi: "Xo'sh, pedagog mahoratining yana qanday omillari bo'lishi mumkin? Subyektga munosabat zamirida obyektning ergashtira olish qobiliyati yotadi. Ergashtira olish, albatta, qiziqirishni talab etadi. Qiziqirish esa nutqiy mahoratni talab etadi. Shundagina o'quvchining diqqat-e'tiborini tortish mumkin. Teran tafakkur, sezgirlik, tez-fahmlik, badihago'ylik, intuitsiya va idrok etish pedagogda umumlashgan bo'lishi kerak". Qo'llanmadagi har bir bo'lim va mavzularda yangicha bir qarash, yangicha bir yondashuv namoyon bo'ladi. Masalan, "O'qituvchining kommunikativ qobiliyati" bo'limida zamonaviy pedagogikaning qonuniyatlariga tayangan holda kom-

munikativ qobiliyatning notiqlik san'ati bilan tutash nuqtalari tilga olinadi. Bino-barin, pedagogning kreativ kompetentligi uning faoliyatida ijodkorlik, izlanuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik fazilatlarini talab etadi. Bu esa ta'limning sifati samarasiga ijobiy ta'sir etadi. Qo'llanma muallifi pedagogik jarayonning har bir jihatiga professional notiq sifatida nazar tashlaydi, zamonaviy pedagogikaning yutuqlaridan umumli foydalanadi hamda o'z xulosa va tavsiyalarini ilgari suradi. Masalan, "Nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari va muhim omillari" bo'limida ham notiq va mahoratli pedagogning jo'yali fikrlari ilgari suriladi. Uning yozishicha, nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlarini puxta o'zlashtirmasdan turib har qanday o'qituvchi nutq ravonligiga ham, notiqlik san'atiga ham erisha olmaydi. Bular tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozishdir. Xuddi shu to'rt asos o'z o'rnida go'zal va ravon bo'lishi uchun bir qator omillar zarur. Ta'kidlanganidek, Rahimboy Jumaniyozov o'ta mahoratli notiq, mashhur so'z ustasi. Bu darajaga yetish uchun qancha mehnat va zahmat chekkaniga biz guvohmiz. Nazarimizda, bularning hammasi uchun nutq texnikasini puxta egallash

talab etiladi. Qo'llanma muallifi ayni shu jarayonni juda puxta o'zlashtirgan, bu borada izlanishlar olib borgan, yangicha yo'nalishga asos solgan. Qo'llanmadagi materiallar ushbu gapimizni tasdiqlaydi. Binobarin, nutq texnikasi va vositalari bo'yicha berilgan amaliy mashg'ulotlar kitobning ilmiy va amaliy qimmatini yanada oshirgan.

Qo'llanmaning amaliy jihatdan yana bir afzalligi shundaki, unda notiqlik san'atidan ham mashg'ulotlar berilgan. Pedagog-notiqning ko'p yillik tajribalari asosida jamlangan, hayot sinovida toblangan fikr-mulohazalar tavsiya qilingan. Notiqlik san'ati bo'yicha berilgan topshiriq-mashqlarning nomlanishi ham o'ziga xos: xos-u mosini top, uzib-ulash, rost-u yolg'on, vaziyat va aziyat, ismim-jismim, oq va qora, tashqaridan mehmon, ichkaridan mezbon va h.k.

Muallif pedagogik mahorat borasidagi nazariy fikrlarni yaxshi o'rganib chiqqach, imkon qadar notiqlik san'atiga e'tibor qaratadi, o'z uslubini bayon etadi. Kitobda boshqa asarlardan ko'chirmalar kamroq bo'lishi mumkin, lekin, eng muhimi, muallif o'z so'zini aytgan, pedagogik mahoratning inson nutqi, notiqlik san'ati bilan chambarchas bog'liqligini o'z tajribalari asosida bayon etgan. Buni "Ko'zlashdan so'zlashga", "Quyidagi suratlarni mantiqan bog'lab matn tuzing, nomlang va so'zlab bering" kabi bo'limlarda berilgan materiallardan ham bilib olish mumkin.

Muallif bayon etilgan materiallar asosida muhim xulosalar chiqargan va kitobxonga tavsiya etgan. Kitobda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ham asar muallifining qanchalar ko'p adabiyotlardan xabardorligini ko'rsatadi. Bu ro'yxat pedagogik mahorat va notiqlik san'ati bo'yicha muhim manbalardir. Qisqacha aytganda, R.Jumaniyozovning "Pedagogik mahorat va kommunikativ kompetentlik" nomli o'quv qo'llanmasi bugungi kun talablariga to'liq javob beradigan, pedagogik ta'limga qo'shilgan munosib hissadir.

Ravshan JOMONOV, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori, filologiya fanlari nomzodi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI A.AVLONiy NOMIDAGI XALQ TA'LIMI MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI BELGILASH ILMiy-TADQIQOT INSTITUTI TAYANCH DOKTORANTURA VA STAJYOR-TADQIQOTCHILIKKA QABUL E'LON QILADI

2022-yil uchun 13.00.07 – Ta'limda menejment (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga va stajyor-tadqiqotchilikka magistr yoki oliy ma'lumot to'g'risidagi (ixtisoslik bo'yicha) diplomga ega bo'lgan, dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalarga (maqola va ma'ruza tezislarga) ega bo'lgan mutaxassislar qabul qilinadi.

TAYANCH DOKTORANTURA VA STAJYOR-TADQIQOTCHILIKKA TALABGORLAR QUYIDAGI HUJJATLARNI TAQDIM ETADILAR:

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi

(ishlayotgan talabgorlar uchun);

– oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;

– nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan, ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislarga ega bo'lish talab etiladi);

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasi;

– pasport nusxasi.

Hujjatlar (PGF) shaklida tayyorlanib, 2021-yil 15-oktabrgacha Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtiruv-

chi Yagona elektron tizim (<http://phd.mininnovation.uz>) orqali ro'yxatdan o'tgan holda qabul qilinadi.

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar quyidagi fanlardan imtihon topshiradilar:

- mutaxassislik (pedagogika fanlari);
- chet tili (ta'limning oldingi darajalarida o'rganilgan xorijiy til).

STAJYOR-TADQIQOTCHILIKKA KIRUVCHILAR MUTAXASSISLIK (PEDAGOGIKA FANLARI) BO'YICHA SUHBAT ASOSIDA TANLAB OLINADI.

Stajyor-tadqiqotchilik va tayanch doktoranturaga kirish uchun suhbat 2021-yilning 1–25-noyabr kunlari o'tkaziladi.

Manzilimiz: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 6-uy.

PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, KASB-HUNAR TA'LIMI BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka qabul qiladi:

1. Tayanch doktorantura (PhD) – 5 ta o'rin.
2. Doktorantura (DSc) – 1 ta o'rin.

Tayanch doktoranturaga va mustaqil izlanuvchilikka o'qishga kirishda talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1. Ariza.
2. Qisqacha biografik ma'lumotnoma.
3. Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun).
4. Oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi.
5. Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.
7. Ish joyidan tavsifnoma (mustaqil izlanuvchilikka talabgor uchun).

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi bo'yicha doktoranturaga va mustaqil izlanuvchilikka kiruvchi talabgorlar quyidagi hujjatlarni topshiradilar:

1. Ariza.
2. Qisqacha biografik ma'lumotnoma.
3. Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun).
4. Oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi.



5. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi.

6. Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari.

Hujjatlar 15-sentabrdan – 15-oktabrgacha bo'lgan davrda Yagona elektron tizim orqali qabul qilinadi.

Tayanch doktoranturaga kirayotgan shaxslar mutaxassislik va chet tili (ta'limning oldingi darajalarida o'rganilgan xorijiy til) bo'yicha kirish imtihonlarini topshiradilar.

Tayanch doktorantura va doktoranturaga kirish imtihonlari 1–25-noyabr davrida o'tkaziladi.

Mustaqil izlanuvchilikka kiruvchi talabgorlar har chorakning uchinchi oyigacha bo'lgan muddatda ixtisoslik bo'yicha suhbat natijalari va institut qabul komissiyasining tegishli xulosasi asosida qabul qilinadi.

Barcha talabgorlar O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligining <http://phd.mininnovation.uz/veb-saytida> ro'yxatdan o'tishlari lozim.

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Telefon: (71) 246-92-17.

Botirova Shaxlo Isamiddinovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Adabiy ta'lim klasterining ilmiy-pedagogik asoslari" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori(DSc) dissertatsiyasi himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021. Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 13-oktabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41;
e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Ibragimova Gulsanam Nematovnaning 13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-oktabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Xojib ko'chasi, 64-uy.
Tel/faks: (71) 150-01-27, 150-01-27;
e-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz
e-mail: info@mdomoi.uz

Faxr

Eng katta ustozim ota-onam!

El orasida "o'qituvchi farzandi" degan ibora bor. Bu ikki so'z ma'nosida qanchalar mas'uliyat, iftixor va orzu-istak mujassam ekanini yaxshi his etaman.



Boisi, otam Ma'murxo'ja Tojiyev Uchko'prik tumanidagi bir nechta maktabda biologiya, kimyo fanidan o'quvchilarga bilim va tarbiya berib keldi. Ko'p yillar 3-maktabda direktor bo'lib ishladi. Onam Mavludaxon Abdullayeva ham Farg'ona davlat universitetining biologiya fakultetini tugatib, maktabda o'qituvchi, so'ng tumandagi "Barkamol avlod" bolalar maktabida rahbarlik qilib, o'quvchilarning iqtidori va qobiliyatini ro'yobga chiqarishga katta yordam bergan.

Bilamanki, onamga oson bo'lmagan. O'sha paytlari qog'ozbozlik, o'qituvchi hamma uchun "beminnat yordamchi" bo'lgan yillarda ayol boshi bilan rahbarlik qilib, ham oilani, ham ishni eplashni fidoyilik degan bo'lardim. U kishining mehnatlari bir necha bor e'tirof etilgan. Ota-onam Uchko'prikda xalq ta'limini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan insonlar deb bemaol ayta olaman. Nafaqat ota-onam, balki amakimlar, ammamlar, xolalarim,

tog'alarim ham o'qituvchilardir. "Sizlarday bo'lgim keladi, bobojon, buvijon" deya qizim Nilufar ham bu yil tumandagi 29-maktabni oltin medalga tamomladi. Va ikkilanmay hujjatlarini o'qituvchilik yo'nalishidagi oliy ta'lim dargohlariga topshirdi. U Qo'qon davlat pedagogika institutining biologiya yo'nalishiga o'qishga kirdi.

Hozirda boshlang'ich sinf o'qituvchisiman. Tumanimizda yangi tashkil etilgan 56-maktabda 3-sinflarga dars beryapman. O'qituvchilikning halol nonini yeb ulg'aydim, hozirgi kunda ham farzandlarimni shu kasb orqasidan katta qilyapman, kelajakda qizim ham ajdodlariga munosib avlod bo'lishiga ishonaman. Aytmoqchimanki, o'qituvchilik eng sharafli kasb. Bu kasbni tanlaganlar doimo elning ardog'ida.

Nargizaxon AHMEDOVA,
Uchko'prik tumanidagi
56-maktab o'qituvchisi

Amanturdiyev Shavkat Balkibayevichning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Xitozan va uning hosilalari asosidagi nanopreparatlarning qishloq xo'jaligi ekinlarining morfologik ko'rsatkichlari va urug'larning ekish sifatlariga ta'siri (g'o'za, bug'doy, soya)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020.Qx.42.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 14-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (71) 150-62-78, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Saliyeva Nargiza Ergashevnaning 23.00.03 – Siyosiy madaniyat va mafkura ixtisosligi bo'yicha "Jamiyatda demokratik jarayonlarni jadallashirishda yoshlar ideosferasini shakllantirish masalalari" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz.

Iskandarova Iroda Rustamovnaning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Limfatik diatezli bolalarda surunkali glomerulonefritning kechish xususiyatlari va davolashni takomillashtirish (tibbiyot fanlari)" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-oktabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Xakimov Abdullo Abduxalilovichning 01.03.01 – Astronomiya ixtisosligida fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan "Muqobil gravitatsiya nazariyalarida aksial-simmetrik obyektlar atrofida relyativistik astrofizik jarayonlar" mavzusidagi dissertatsiyasining himoyasi Astronomiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.FM.15.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-oktabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, 33-uy.
Tel: (+99871) 235-81-02, faks: (+99871) 234-48-67; e-mail: igor@astrin.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn(masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Tariximizni o'rganamiz


Qadimiy va hamisha navqiron deb e'tirof etiluvchi ochiq osmon ostidagi muzey shahar — Xiva obidalarini ko'rsangiz ko'zingiz quv naydi. Shunday baland minora-yu madrasalarni qurgan ajdodlarimizning bilim-u tafakkuriga tasannolar aytasiz.

Chodra hovli haqida bilasizmi?

Qadimiy obidalar faqat Ichanqal' adagina emas, balki shahar atrofidagi qishloqlarda ham borligi haqida eshitganmisiz?

Shulardan biri xalq tilida "Sayotxonning ko'shki" deb ataluvchi Chodra hovli arxitektura yodgorligidir.

Chodra hovli arxitektura yodgorligi Xiva tumanidagi Sayot qishlog'ida joylashgan. XIX asrga tegishli bo'lgan Chodra hovli Xiva shahridan 11 kilometr sharqda, Yangiariq tumaniga boraverishda yo'l bo'yida. Bu betakor ko'rinishdagi bino 1871-yili Muhammad Rahimxon Feruz tomonidan yozgi dam olish qarorgohi sifatida qurilgan. Binoning ost qismida ikkita omborxonona va otxona bor. Birinchi va ikkinchi qavatlarida yashash xonalari joylashgan. Bunday imoratlar qurilishida asosan paxsa loydan, ayrim hollarda esa yirik xom g'ishtdan foydalanilgan. To'rt qavatli Chodra hovli inshooti ham xuddi shu yo'sinda qurilgan.



Binoning rejadagi o'lchamlari 16x8 metr, umumiy balandligi 30 metrgacha bo'lgan. Birinchi qavatdagi paxsaning eni 80 sm, to'rtinchi qavatdagi sinch devor qalinligi 40 sm. Binoning birinchi qavati omborxonona va otxona, 2-3-qavatlarida dam olishga mo'ljallangan xonalardan iborat. Loyli gruntlar quruq va issiq, iqlimli joylarda qurilish ashyosi sifatida qo'llanilgan. Ajdodlarimiz o'rta qavatli bino qurilishida zilzilabardoshlilikni ta'minlovchi antiseysmik chora-tadbirlar ishlab chiqqan. Bunda qavat balandligini bino balandligi oshgan sari kamaytirib borishga e'tibor berganlar. Shuning uchun, bino minora shaklida qurilgan. Bino to'g'ri burchakli tarzda to'rt qavatli. Birinchi qavati atrofi berk ikki xonali. Paxsa zinapoya bilan yuqoriga chiqiladi. Ikkinchi qavatda g'arba tomonga qaratib ayvon qurilgan. Uchinchi qavatda yotoqxona, janub va g'arba qaratib qurilgan ayvon bor. Shimol tomonidan yaxlit devor o'ralgan. Yuqoriga ko'tarilish hisobiga qavatlar maydoni va devori qalinligi kamayib borgan. Xonalar ich qismi ganch bilan suvalgan. Binoning yagona bezagi o'ymakor xarilar hamda ayvon panjralaridir.

Chodra hovli arxitektura yodgorligini tomosha qilish uchun umumta'lim maktabi o'quvchilari, xorijiy va mahalliy sayyohlar tez-tez tashrif buyurishadi. Bu inshoot qad rostlaganiga 100 yildan oshgan bo'lsa-da, hamon salobati va fayz-u tarovati bilan kishilarni o'ziga maftun qilaveradi.

Ma'mura ABDULLAYEVA,
Xiva tumanidagi
39-maktabning tarix fani o'qituvchisi

“Ma'rifat” – katta oila, katta maktab

Shu kunga qadar faoliyat yuritgan maskanlarim orasida menga katta saboq bergani “Ma'rifat” atalmish ulug' dargohdir. Hayotimdagi ushbu voqea hech yodimdan chiqmaydi. O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakultetining ikkinchi bosqichini tamomladim, yozgi ta'til boshlandi. OAV xodimlari bayramidan bir kun avval tug'ilgan kunim. Xuddi o'sha kuni “Ma'rifat” bosh muharriri Halim Saidov qo'ng'iroq qilib (ikki oy avval ish so'rab borgandim), tahririyatdagi texnik xodimlardan biri mehnat ta'tiliga chiqayotganligi sababli meni ishga taklif qildi. Bu xabarni eshitib rosa suyundim, bayram ustiga bayram bo'ldi. Ertasiga onamdan duo olib, tahririyat tomon yo'l oldim.

Uzun, oppoq yo'lakdan yurib borarkanman amaliyot o'tab yurgan kezarimdagi orzum ushlanganiga hali hamon ishonmasdim. Vaqtincha ishga yollangan bo'lsam ham, mendan baxtli odam yo'q edi o'shanda. Avvaliga ish yurituvchi, so'ngra operator-teruvchilarning o'rnida ishlab yurdim. Ta'til ham tugay deb qolgandi. Bu dargohdan hech ham ketgim kelmasdi. Tahririyatdagi ijodiy muhit, xodimlarning o'zaro mehrlil munosabati meni o'ziga rom etgandi.

Bag'rikeng ustozlarning tavsiyasi va ko'magi bilan “o'zinni ko'rsata” boshladim. Shu orada maqolalarim gazeta sahifalarida chiqdi. Joylardagi tadbirlarda qatnashib yangiliklar tayyorladim. Tahririyatning “Talaba-jurnalistning eng yaxshi maqolasi” nominatsiyasida g'olib bo'ldim. Shu tariqa “Ma'naviyat” bo'limiga 0,25 stavka muxbirlikka qabul qilindim. Ana endi men ham mana shu katta oilaning a'zosisiga aylandim. Ha, bu dargohda haqiqatan ham shakllangan KATTA OILANI his qilish mushkul emas, bunga faoliyatim davomida yana va yana amin bo'lavardim. Unda o'ziga xos an'ana, qadriyatlar bor. Unda har bir ijodkorning ijodi kuzatiladi, kimo'zarga maqola yozishda do'stona raqobatlashiladi, yoshlar ijod qilishiga keng yo'l ochib beriladi, bilmagani o'rgatiladi, bilgani e'tirof etiladi. Shu bilan birga, bu maskanda xodimlarning turish-turmushidan xabardor bo'lib ko'mak berish, sog'lig'i uchun qayg'u-rish, nafaqadagi faxriylar holidan xabar olish, ijarada turgan talaba-xodimlarni qo'llab-quvvatlash, yaxshi ishlagan talaba-jurnalistlarning shartnoma pulini to'lab berish kabi ezgu amallarni ko'rdim. Bu ishlarga bosh bo'lib turgan Halim aka, hech kimdan duosini ayamaydigan,



mehribon Qutbi ona, hayotiy maslahatlari bilan hammamizga ona bo'lib qolgan Dilobar opa, gazeta chiqadigan kuni navbatchi yosh yigitlar uchun ham uyidan ovqat



ko'tarib keladigan Oydin opa, Sanobar opa va Surayyo opa, odatda mehribon, ba'zan qattiqqo'llik qilib bizning foydamiz uchun “ishlatadigan” Abdusamad aka, Faxriddin aka, Hulkar opa, Oybuva opa, Husan aka, Akmal aka... Eh-he ularning safi keng. Ular tomonidan berilgan maslahat, ko'mak, tanbehlar har birimizni charxladi. “Ma'rifat”chilar” degan nomga sazovor bo'ldik. Qanchadan-qancha yoshlarning yuqori marralar, baland parvozlariga tramplin bo'lib xizmat qildi.

Ularning har birini yodga olyapman-u, shirin xotiralarim uyg'onib ketdi. Bir kuni bo'lim boshlig'imiz Behzod Fazliddin bir maqolani tahrir qilish uchun berdi. Imlo va grammatik xatosi talaygina. Qayta ishlayapman-u, negadir hech o'xshamaydi, janrini ham chiqara olmay rosa uringanman, ma'qul bo'lavermagan. Kamchiliklarimni ko'rsatgan. Lekin baribir o'sha hol. Besh-olti marotaba urinishdan so'ng oxiri qabul qilingan. Bilsam, tadbir sanasi hamda joyiga e'tibor bermagan ekanman, juda eskirgan xabar bo'lib chiqqan. Eshitgan tanbehlarim yodimda. So'ng bu xatoni takrorlamaslikka harakat qilganman.

Muborak ramazon oyi tahririyatimizda iftorlik dasturxonlari yozilardi. Shunday vaqtlarda hisobchimiz Karima opa, Zilola, Rayhona, Mahbuba, Nargiza, Shahina va meni(hali turmushga chiqmagan qizlar edik) oldiga chaqirib, dasturxon tuzash,



hatto anorni qanday kesish, ko'katni qancha maydalikda to'g'rashgacha o'rgatardi. Shunda qizlar bilan anorni ham kesish qoidasi bo'larkanmi, deb rosa kulgandik. Bo'larkan! “Ma'rifat”ning tajribali ayol xodimlari o'z izdoshlariga ana shunday saboq berishgan. Bu saboq faqat professional faoliyat bilan kifoyalanmasdi, balki orasta oila bekasi, tadbirli ayol va mehribon, oqila ona bo'lish sirlarini o'rgatishi bilan ham hayotimizda katta iz qoldirdi.

Tahririyatda sog'lom turmush tarziga alohida e'tibor qaratilib, musobaqalar tashkil qilinardi. Har yili Xalq ta'lim vazirligi tomonidan ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan o'tkaziladigan erkaklar o'rtasida mini futbol, ayollar orasida stol tennisi musobaqalarida ham ancha faol bo'lganmiz. Doim “Ma'rifat”chilar yuqori o'rinlarni olgan. Ta'lim nashrlaridagi hamkasblarimizning bizga havasi kelardi. Ayniqsa, biz qizlarga. Yodimda, taqdirlash marosimida oldingi qator safida turibmiz. G'oliblikni qo'lga kiritganmiz, shu bilan birga charchaganmiz. Vazirlikdan kelgan mansabdor uzoq nutq so'zlamog'da. Bu yozda televideniye kamerallari biz tomonga qaratilgan. Ayollar o'tob tushib turishiga qaramay, arang qaddimizni tik tutyapmiz, shunda ortimizda turgan ustoz Halim Saidov boshchiligidagi erkaklar jamoasi oldinga o'tib bizni quyoshdan pana qilib olishgan.

Biz ana shunday qalami o'tkir, ijodga tashna, qolaversa, kattalari hurmatlangan, kichiklari izzatlangan, ayollari e'zozlangan OILAdan chiqqanmiz.

Hozirgi kunda ko'pchiligimiz ushbu muqaddas dargohdan uchirma bo'lib, har jabhada o'z o'rnimizni topib ketdik. “Ma'rifat”ning kadrlar bo'limi kartotekasida nomi qayd etilgan har bir xodim bu oilani hamon qo'msashi rost. KATTA OILAning har bir a'zosisiga rahmat aytgim keladi, ular bergan saboq, o'g'it, maslahatlar hayot yo'lida KATTA MAKTAB bo'lib xizmat qilganidan minnatdorman.


Muxlisa DO'STMUHAMMEDOVA
(MO'MINOVA)

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4866. Tiraj 7391.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



“Ma'rifat”dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

“O'zbekiston” nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

TA'NIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.